2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 97 (1158), 2024-yil 21-may, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

BANKLARNING INVESTITSIYAVIY FAOLIYATI VA AHOLI BANDLIGIDAGI ISHTIROKI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-may kuni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda banklarning ishtirokiga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizdagi qulay investitsiya muhiti natijasida banklarning moliyaviy barqarorligi va faolligi ortib bormoqda. Xususan, sohadagi islohotlar tufayli so‘nggi 5 yilda banklarning kapitali 2 barobarga, kredit portfeli 2,3 barobarga hamda yillik kredit ajratish hajmi 1,8 barobarga ko‘paydi.

To‘rtta bank ilk bor yevrobond chiqarib, chetdan 1 milliard 300 million dollar resurs jalb etdi. O‘tgan yili banklar 3,8 milliard dollarlik, shuningdek, ularning mijozlari hukumat kafolatisiz 6 milliard dollarlik xorijiy kreditlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib kelgan.

Zamon talabidan kelib chiqib, bu ishlarni yanada kengaytirish va loyihalarni sifatli amalga oshirish zarur.

Taqdimotda Milliy bank hamda “O‘zsanoatqurilishbank”ning shu boradagi faoliyati haqida axborot berildi.

Joriy yilda Milliy bank tomonidan 6 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, zargarlik tarmog‘ida 2,1 trillion so‘mlik 526 ta, xizmatlar sohasida 41,8 trillion so‘mlik kreditlar hisobidan 40 mingdan ortiq loyihalarni amalga oshirish va 2,5 million nafar aholi bandligini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

“O‘zsanoatqurilishbank” bu yil xalqaro moliya bozorlaridan 3 milliard 100 million dollarlik mablag‘ jalb etishni maqsad qilgan. Bank mijozlari bilan umumiy qiymati 4 milliard 800 million dollarlik investitsiya loyihalariga kirishilgan.

Mazkur bank tomonidan qurilish materiallari sohasida 2024-2025-yillarda 529 ta loyiha doirasida 2 milliard 800 million dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, bu orqali 25 mingdan ziyod ish o‘rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, Milliy bank 967 ta, “O‘zsanoatqurilishbank” 727 ta mahallada ishsiz aholi bandligini ta’minlashga ko‘maklashmoqda. Yana bir muhim jihati, banklar quyi bo‘g‘inga tushib ishlayotgani uchun ko‘plab biznes tuzilmalar “soya”dan chiqmoqda.

Taqdimotda mijozlarning investitsiya loyihalarini tizimli monitoring qilib, muammolarni tezkorlik bilan hal etib borish zarurligi qayd etildi.

Tadbirkorlarga tuman darajasidan respublika miqyosigacha har tomonlama yordam berish, ularning moliyaviy bilimlarini oshirish va innovatsiyalar bilan tanishtirish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zA

TAHLIL VA TAQQOS

UYG‘ONISH QO‘NG‘IROG‘I

SAYXUNOBOD TAJRIBASI O‘ZIGA TO‘Q QATLAM SAFINI KENGAYTIRISHGA QARATILGAN

Inson baxtli bo‘lishi uchun ishonch va imkoniyat berilishi yetarli. Qolganini o‘zi eplaydi. Katta marralarni zabt etishiga ishonsa, odamning irodasini sindirib bo‘lmaydi. Bu ishonchni esa aksariyat hollarda o‘ziga berilgan imkoniyatdan topadi.

Bugun oldimizda turgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham aynan shu imkoniyat va ishonch berilishi tufayli hal etilmoqda. Masalan, Sayxunobod tajribasi ayni paytda ko‘plab hayotiy muammolarga yechim bo‘layotgani bor gap. Shuning uchun mazkur tajribani ommalashtirish orqali ijtimoiy masalalar hal etilmoqda.

Shu haqda o‘ylaganda ushbu tajribaning hayotiy timsoli bo‘lgan sayxunobodlik Risolat G‘ulomova esimga tushadi. Tumanning Ittifoq mahallasida yashaydigan onaxonning xonadonida bo‘lib, tomorqachiligi bilan tanishgan, dildan suhbatlashgan edim. Risolat onaning yoshi yetmishga yetgan. Farzandlarini allaqachon uylijoyli qilgan. O‘g‘illari ham, kelinlari ham oliy ma’lumotli, bir kasbning etagini tutgan. Endi onaxon nabiralar tarbiyasi bilan shug‘ullanib, bemalol dam olsa bo‘laverardi.

Davomi 3-betda

Xalqaro aloqalar

AZALIY RISHTALARDAN ISTIQBOLLI HAMKORLIK SARI

Globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlar, davlatlararo aloqalarda yangicha tartib — ko‘p vektorli siyosiy yondashuvlar asosidagi muvozanatli tashqi siyosat konsepsiyasi yuzaga keldi. Jahon hamjamiyati hukmron siyosiy kuchlarning gegemon siyosati o‘rniga har tomonlama manfaatli hamkorlikka asoslangan, davlatning barqarorligi va taraqqiyot maqsadlariga xizmat qiladigan munosabatlarni ma’qul ko‘rmoqda.

O‘zaro hurmat va manfaatli hamkorlikka qurilgan munosabatlar uzoq muddatli va mustahkam aloqani ta’minlaydi. Shu jihatlar O‘zbekiston — Malayziya o‘rtasidagi ko‘p qirrali aloqalarning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi. Malayziya mamlakatimizning Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim hamkori. U mintaqa davlatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqa o‘rnatishda O‘zbekiston uchun o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Malayziya maftunkor tabiat, ekzotik o‘rmonlar, o‘ziga xos qadriyat va an’analarga ega ajoyib mamlakat. U mintaqadagi yirik sanoatlashgan davlat, tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Turizm, zamonaviy axborot texnologiyalari, bank-moliya, qishloq xo‘jaligi, ta’lim sohalarida jahon standartlari darajasiga chiqib ulgurgan. Neft mahsulotlarini qazib olish va eksport qilishda ham mintaqada yetakchi o‘rinlarda.

Turizm rivoji bo‘yicha mintaqada beshinchi, dunyoda to‘qqizinchi o‘rinda turadi. Sayyohlikdan keladigan daromadi yiliga 95 milliard dollardan ortiq. Bu mamlakat byudjetining taqriban 10 foizi demakdir. Yiliga millionlab sayyohlarni o‘ziga tortayotgan bu o‘lka go‘zal tabiati, o‘rmonlari, ekzotik bog‘lari, qadimiy arxitekturasi va betakror madaniyati bilan alohida ajralib turadi. Har yili Malayziyaga turli mamlakatlardan 20 milliondan ortiq sayyoh boradi. Barqarorlik va xavfsizlik mamlakatda turizmning bir maromda rivojlanib borishini ta’minlaydi. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari orasidagi mintaqaviy hamkorlik va barqarorlik turizm rivoji, sanoat taraqqiyoti hamda iqtisodiyotning o‘sishiga qulay zamin yaratgan.

Davomi 2-betda

Dil izhori

Davlatimiz rahbari kuni kecha Kinochilar saroyiga tashrifi doirasida rejissyor va aktyorlar, kinoshunoslar, soha mutasaddilari bilan suhbatlashdi. Ushbu samimiy uchrashuv faxr bilan uzoq yillar eslab yuriladigan, kelajakka kuch-quvvat beradigan voqea bo‘ldi. Muloqotda yosh ijodkor sifatida samimiy munosabatdan, ishonch tuyg‘usidan faxrlanib o‘tirdim. Zero, bizning ayni kuchga to‘lgan, ishlaydigan paytimiz. Ayniqsa, “Tirik tarix” turkumidagi filmlarda men orzu qilgan rollar ham borligidan juda xursand bo‘ldim. Bunday filmlar mahoratimizni oshiribgina qolmay, xalqimiz uchun noyob xazina ham bo‘ladi.

VATANPARVAR BO‘LMAGAN INSON *ijod qilolmaydi*

Prezidentimiz “Qani yoshlardan ham eshitaylik, Aysanem!” deganida avvaliga rosa hayajon bosdi. Yosh bo‘laturib, gapirishim noqulaydek tuyulaverdi. Keyin o‘z-o‘zidan “O‘zbek qizi” filmi haqida aytilgan ko‘plab ijobiy fikrlarni esladim. Tinch zamonda yashayotganim, mana shunday fayzli davrada o‘tirganimning o‘zi eng oliy baxtligini his qildim. Kinoasardan ham shularni anglab yetganimni aytdim.

Chindan ham “O‘zbek qizi”ni suratga olish jarayonida yuzlab ijodkorlar orasidan chetga o‘tib, yig‘lab olgan paytlarim bo‘ldi. U yerdagi muhitni so‘z bilan tushuntirib berolmasligim ham haqiqat. Biz-ku urush manzaralarini tasvirga olish jarayonida his qilyapmiz, chinakam qahramonlar bu dahshatlarga qanday bardosh bergan ekan? Xullas, shu kabi mushohadalar, o‘ylar katta davrada atroflicha munosabat bildirishimga asos bo‘ldi.

Yaqinda shifokor qizlar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan filmni suratga olish jarayonini tamomladik. Shuningdek, milliy seriallarga ham juda ko‘p taklif bo‘lib turibdi. Hammasiga ulgurish qiyin, albatta. Yoshlar, tengdoshlarim bilan ko‘p muloqotda bo‘lganim uchun ulardan kuch-g‘ayrat olaman.

So‘zlarimni diqqat bilan tinglagan davlatimiz rahbari “Fidoyi, vatanparvar, sadoqatli qizni tarbiya qilgani uchun ota-onangizga rahmatimni yetkazib qo‘ying”, deganida o‘zimni dunyodagi eng baxtli inson deb his qildim. Farzand uchun ota-onasiga rahmat keltirishdan ham oliy baxt bo‘lmasligini yana bir bor tushunib yetdim. Vatanparvar etib tarbiyalaganlari uchun ulardan bir umr minnatdorman. Zero, qalbida vatanparvarlik hissi bo‘lmagan inson ijod qilishi qiyin.

Chet ellik kino muxlislari qalbini milliy filmlarimiz bilan zabt etishni orzu qilaman. Tarixiymi, zamonaviymi, qanday film bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z rolimni mehr bilan ijro etishga harakat qilaman. Busiz ijod ham bo‘lmaydi. Nasib qilsa, o‘zbek kinosi oltin fondiga munosib filmlarda salmoqli obrazlar yarataman. Buning uchun yurtimizda barcha imkoniyat yaratilgan, maqsadim yo‘lida bor kuchimni sarflashga tayyorman.

Aysanem YUSUPOVA,
aktrisa

G‘alaba odimlari

Temur KAPADZE:

“PARIJ-2024” BU — BOSHLANISHI

Maqsadimiz — Olimpiada va jahon chempionatlarida doimiy ishtirok etish

6

2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi ikki baravardan ziyodga oshdi, qo‘shma korxonalar soni ko‘paydi. Shuningdek, Toshkent va Kuala-Lumpur o‘rtasida aviaqatnovlar ortmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 21-may, 97-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON — MALAYZIYA MUNOSABATLARIDA YANGI SAHIFA OCHILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning 17-19-may kunlari O‘zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi va Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi ikki tomonlama muzokaralar xorijiy ijtimoiy-siyosiy va ekspert-tahlil doiralari vakillari tomonidan yuqori baholanayotir.

Nur Jazlan MUHAMMAD, Malayziya Parlamenti Senati raisi o‘rinbosari:

— Ushbu tarixiy tashrif natijalarini yuqori baholayman. Menimcha, bu global siyosatda, ayniqsa, islom dunyosida tobora faol rol o‘ynayotgan hamkor davlatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Shuni ta’kidlashni istardimki, Malayziya hukumati rahbarining so‘nggi tashrifi 16-yil oldin amalga oshganini inobatga olsak, bunday muloqotga ehtiyoj uzoq vaqtdan buyon mavjud edi.

Oliy darajadagi muzokaralarning do‘stona muhiti O‘zbekiston Prezidenti va Malayziya Bosh vazirining hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish istagini namoyish etadi.

Ikki tomonlama munosabatlar tarixida ko‘z o‘ngimizda yangi sahifa yozilmoqda. Ikki mamlakat yetakchilari “halol” standartlari bo‘yicha hamkorlik, bank-moliya va oziq-ovqat sanoati bilan birga sheriklikning bir qator yangi istiqbolli yo‘nalishlarini, xususan, raqamlashtirish, “yashil” energiya, sun’iy intellekt va boshqa yo‘nalishlarda aloqalarni mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida ko‘rib chiqilgani quvonarli, albatta.

Ishonchim komilki, Samarqandda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston — Malayziya biznes-forumi yakunlari iqtisodiyotga alohida e’tibor qaratgan holda munosabatlar dinamikasiga kuchli turtki beradi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi an’anaviy faol parlament diplomatiyasi tajribasiga tayanib aytishim mumkinki, Malayziya Parlamenti Senati ikki davlat munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga hissa qo‘shishga tayyor. Joriy yil iyun oyida parlamentning har ikki palatasi rahbariyati bilan muzokaralar o‘tkazish uchun O‘zbekistonga shaxsan tashrif buyurishni rejalashtiryapman.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston — Malayziya” parlamentlararo do‘stlik guruhining navbatdagi uchrashuvi, shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining Kuala-Lumpurga tashrifi kun tartibimizdan o‘rin olgan.

Ikki mamlakat hukumatlari tashrif yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga va o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi ufqlarini izlashga alohida e’tibor qaratishiga ishonchim komil.

Roy Entoni ROJERS, Malaya universiteti qoshidagi Osiyo va Yevropa instituti direktori o‘rinbosari:

— Malayziya Bosh vazirining O‘zbekistonga rasmiy tashrifi ikki mamlakat o‘rtasida do‘stlik va ko‘p qirrali sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladigan tarixiy voqeadir.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston rahbarining siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish, gumanitar va ta’lim dasturlarini amalga oshirish, turizm va madaniy almashinuvni faollashtirish muhimligi haqidagi fikrini qo‘llab-quvvatlayman.

Shu bilan birga, ikki davlat salohiyatidan to‘liq foydalanish uchun savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda amaliy hamkorlikni kuchaytirish zarur deb hisoblayman.

Xususan, 2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi ikki baravardan ziyodga oshdi, qo‘shma korxonalar soni ko‘paydi. Shuningdek, Toshkent va Kuala-Lumpur o‘rtasida aviaqatnovlar ortmoqda.

Tashrif doirasida o‘tkazilgan O‘zbekiston — Malayziya biznes-forumi yakunlari investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, innovatsiya, sanoat, “yashil” energetika, neft-kimyo, elektrotexnika va elektronika, farmatsevtika va boshqa sohalarda yetakchi kompaniyalar kooperatsiyasiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidentining muzokaralar chog‘ida ilgari surgan tashabbuslari dolzarbligini alohida ta’kidlamoqchiman. Jumladan, O‘zbekiston — Malayziya sanoat zonasini tashkil etish, qo‘shma Savdo bo‘yicha qo‘shma qo‘mitani Hukumatlararo komissiyaga aylantirish, “Markaziy Osiyo + ASEAN” formatida tashqi ishlar vazirlari muloqotini tuzish bo‘yicha takliflari shular jumlasidandir.

Tashrif chog‘ida imzolangan ko‘p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot O‘zbekiston bilan Malayziya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qilishiga ishonaman.

> **Samarqandda O‘zbekiston — Malayziya biznes-forumining o‘tkazilishi, bir tomondan, davlat rahbarlarining ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan jiddiy niyatlari ko‘rsatkichi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ishbilarmon doiralarning o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan manfaatdor ekanidan dalolatdir.**

Nizran NURDIN, Malayziya Islom turizmi markazi bosh direktori:

— Mamlakatlarimizni tarixiy va madaniy aloqalar, bag‘rikenglik, xilma-xillik va mehmondo‘stlik an’analari kabi azaliy va umumbashariy rishtalar bog‘lab turadi. Bugungi kunda turizm O‘zbekiston — Malayziya o‘rtasidagi hamkorlikning strategik yo‘nalishlaridan biridir.

O‘ylaymanki, Bosh vazir Anvar Ibrohimning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi islom turizmining yetakchi yo‘nalishlari sifatida ilgari surish bo‘yicha hamkorligimizga yanada turtki beradi.

O‘tgan yili Samarqand shahrida imzolangan O‘zbekiston va Malayziya hukumatlari o‘rtasida turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi memorandumni amaliy mazmun bilan to‘ldirish bo‘yicha o‘zbekistonlik hamkorlarimiz va O‘zbekiston elchixonasi bilan muhokama qildik hamda aniq vazifalarni belgilab oldik. Yaqin istiqboldagi rejalarimizdan turizm sohasi vakillarining o‘zaro tashriflari, qo‘shma treninglar, shuningdek, musulmonlar uchun qulay turizm standartlarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or tajriba almashish o‘rin olgan.

“Uzbekistan Airways” AJ va “Batik Air Malaysia” aviakompaniyasi tomonidan yo‘lga qo‘yilgan Toshkent va Kuala-Lumpur o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri havo qatnovlari ikki mamlakatda turizmni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning madaniy merosi, noyob me’morchiligi va jadal rivojlanayotgan turizm infratuzilmasi malayziyalik sayyohlarni yanada ko‘proq jalb etadi. Shu bilan birga, parvozlar qatnovini oshirish o‘zbekistonlik do‘stlarimizga Malayziyaning rang-barangligi, mehmondo‘stligi va go‘zalligini his qilishi uchun imkoniyatlar ochadi.

Ye TIANLE, Xitoy zamonaviy xalqaro munosabatlar akademiyasining katta ilmiy xodimi:

— Rasmiy tashrif Toshkent dunyoning barcha mamlakatlari va mintaqalari bilan faol manfaatli munosabatlar o‘rnatish borasidagi sa’y-harakatlarining isboti bo‘ldi.

16 yil ichida birinchi marta Malayziya rahbariyatining O‘zbekistonga tashrifi davomida muhokama etilgan barcha masalalar va o‘tkazilgan ikki tomonlama tadbirlar juda samarali kechdi.

Muzokaralar yakunida ikki davlat yetakchilari ko‘p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha Qo‘shma bayonotni qabul qildilar. O‘zbekiston — Malayziya hamkorligi jadal rivojlanishini kafolatlaydigan keng ko‘lamli masalalar bo‘yicha konsensusga erishildi.

Shu ma’noda, ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish bo‘yicha amaliy qadamlar qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqandda O‘zbekiston — Malayziya biznes-forumining o‘tkazilishi, bir tomondan, davlat rahbarlarining ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan jiddiy niyatlari ko‘rsatkichi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ishbilarmon doiralarning o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan manfaatdor ekanidan dalolatdir.

Forum yakunlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, yetakchi kompaniyalar o‘rtasida investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, innovatsiyalar, sanoat, “yashil” energetika, neft-kimyo, elektrotexnika va farmatsevtika sohalarida hamkorlik qilish borasida erishilgan kelishuvlar hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu jabhalarda erishilgan kelishuvlar o‘zaro munosabatlarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishi hamda O‘zbekiston va Malayziyaning o‘z mintaqalaridagi rolini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

“Dunyo” AA

Derya SOYSAL, Ekologiya va atrof-muhit bo‘yicha mustaqil ekspert, Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha mutaxassis (Belgiya):



— So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasida keng ko‘lamli hamkorlik faollashgani kuzatilyapti. Oliy darajada muloqotlar olib borilmoqda. Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, turizm va madaniyat sohalarida ikki tomonlama aloqalar har jihatdan chuqurlashyapti. Gumanitar va ta’lim yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan loyihalar ko‘lami tobora kengaymoqda.

Savdo-iqtisodiy soha hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, ikki davlat kun tartibidan o‘rin olgan. Hozirgi qo‘shma Savdo qo‘mitasi faoliyatini alohida ta’kidlash kerak. 2023-yil yakuni bo‘yicha mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ikki barobardan ziyod oshgani ham juda muhim.

Savdo masalalari bo‘yicha hukumatlararo komissiya va O‘zbekiston — Malayziya sanoat zonasini tashkil etish to‘g‘risida erishilgan kelishuv Malayziya O‘zbekistonga Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy va investitsiyaviy markaz sifatida qarashini namoyon etadi.

Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi, shubhasiz, ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

Xalqaro aloqalar

AZALIY RISHTALARDAN ISTIQBOLLI HAMKORLIK SARI

Sarvarjon G‘AFUROV, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i,siyosiy fanlar doktori, professor

> **Yurtimiz uchun Malayziyaning boy tarixi, milliy an’analari, turizm, bank-moliya tizimi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va eksport sanoati yaxshi tajriba bo‘la oladi. Mamlakat zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji, dasturlash yo‘nalishlari tez taraqqiy etayotgan xab tizimi bilan jahonda yetakchilardan. Shu jihatdan bugun O‘zbekistonda axborot texnologiyalari tadrijiy rivojida Malayziya tajribasi yetakchi o‘rin tutadi.**

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston — Malayziya munosabatlari mustaqillikning ilk yillaridan yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytga qadar bir necha muhim bosqichni bosib o‘tdi. O‘zaro munosabatlar yillar davomida shakllanib, sayqallanib keldi. Bugunga kelib, ikki davlat aloqalari navbatdagi bosqichga ko‘tarildi.

Prezidentimiz taklifiga binoan Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning mamlakatimizga tashrifi ana shu munosabatlarning yangi ruhda, yanada mustahkam poydevorga tayangan prinsiplar asosida davom ettirilishiga zamin yaratadi. Ushbu tashrif ikki davlat munosabatlarining azaliy do‘stona rishtalardan istiqbolli hamkorlik hamda muhim sheriklik darajasigacha ko‘tarilishiga turtki bo‘ladi.

Zero, tashrif doirasida tizimli siyosiy muloqotlarni rivojlantirish, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy almashinuv doiralarini kengaytirish, o‘zaro savdo, innovatsiyalar, axborot texnologiyalari, energetika, neft-kimyo sanoati, ishlab chiqarish, elektrotexnika, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Axborot texnologiyalari, bank-moliya, islom banki, turizm, ziyorat turizmi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va eksport qilish ushbu davlatning drayverlaridan. Shu bois, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish, mintaqaviy va jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvni kengaytirishga intilayotgan mamlakatimiz uchun Malayziya bilan muhim sheriklik munosabatlarini mustahkamlash geostrategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi, ijtimoiy himoya mexanizmlari, diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, ta’lim, madaniyat, sayyohlik tizimi rivoji, xususan, ziyorat turizmi Malayziyaning muttasil e’tiborini tortib kelgan.

Malayziya aholisining katta qismi musulmonlar. Mamlakatda diniy bag‘rikenglik prinsipiga qat’iy amal qilinadi. Ushbu yurt musulmonlari O‘zbekistonni islom ma’rifati va madaniyati markazi sifatida katta ehtirom bilan e’tirof etadi. Mamlakatimizning diniy va millatlararo bag‘rikenglik tamoyillari, aholi manfaatlari, ijtimoiy himoyasi masalalari ushbu davlat uchun ham fuqarolik jamiyati qurish, ijtimoiy himoya ishlarida islohotlarni amalga oshirishda tajribaviy ahamiyat kasb etadi.

Islom ma’rifati va madaniyati rivojidagi ulkan hissasi, jahonga tanilgan allomalar yurti sifatida O‘zbekiston malayziyaliklarning alohida hurmatiga sazovor. Har yili bu davlatning minglab vakili yurtimizdagi qadimiy shaharlar, islom ma’rifati va madaniyati markazlari, muqaddas tarixiy maskanlarni ziyorat qilish uchun keladi. Ayniqsa, oxirgi yillarda haj va umra safariga ketayotgan malayziyaliklarning O‘zbekistondagi muqaddas maskanlarni ziyorat qilish an’anasi yo‘lga qo‘yildi.

Yurtimiz uchun Malayziyaning boy tarixi, milliy an’analari, turizm, bank-moliya tizimi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va eksport sanoati yaxshi tajriba bo‘la oladi. Mamlakat zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji, dasturlash yo‘nalishlari tez taraqqiy etayotgan xab tizimi bilan jahonda yetakchilardan. Shu jihatdan bugun O‘zbekistonda axborot texnologiyalari tadrijiy rivojida Malayziya tajribasi yetakchi o‘rin tutadi.

Milliy hunarmandligimizning Malayziya me’morligi bilan uzviy bog‘liqligi bor. Yurtimiz hunarmandlari, jumladan, yog‘och o‘ymakorlari, naqqoshlar Malayziyadagi bir necha masjid, madaniyat maskanlari, muzeylar qurilishida faol ishtirok etgan. Ularning ijod namunalari bugun ushbu davlatdagi masjid va muzeylarda o‘z o‘rnini topgan. Aholi juda qadrlaydi.

Milliy, ekzotik taomlariga ega bo‘lsa-da, o‘zbek taomlariga qiziqish Malayziyaning yirik shaharlarida bir necha o‘zbek restoranlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga sabab bo‘ldi. Turli mavsumlarda o‘tkaziladigan milliy va xorij taomlari xalqaro ko‘rgazma hamda tanlovlarida o‘zbek oshpazlari tayyorlagan taomlar alohida e’tirofga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Malayziya oliy ta’lim muassasalari jahon standarti darajasida o‘qitish sifati bilan dunyoga tanilgan. Ularda bugun ko‘plab o‘zbek yigit-qizlari tahsil olmoqda. Bu yerdagi o‘qitishning o‘ziga xos jihati shundaki, xorijiy tillarda bilim olish bilan birga xalqaro e’tirof etiladigan diplomga ega bo‘lish, kasbiy mahoratni oshirish hamda mamlakatdagi mashhur kompaniyalarda amaliyot o‘tash imkoniyati mavjud.

O‘z navbatida, yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida ta’lim-tarbiyaga qaratilayotgan e’tibor xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. Bu sohadagi islohotlar xorijiy davlatlarning qiziqishiga sabab bo‘lmoqda. Yoshlar masalasi bilan bog‘liq jihatlar, bu boradagi o‘zbek tajribasi Malayziya uchun ham dolzarb.

Malayziya yirik sanoatlashgan mamlakat sifatida mintaqada iqtisodiy taraqqiyotning lokomotivlaridan. Malakka bo‘g‘ozi orqali jahon suv transporti yo‘lagiga chiqish imkoniyati uning jahon savdo tizimlariga bevosita ulanish salohiyatini beradi. Bundan tashqari, bu davlat jahon moliya markazlaridan sanalgan Singapur, ko‘p sonli aholiga ega Indoneziya, yirik sayyohlik markazlaridan hisoblangan Tailand, ulkan neft zaxiralariga ega Bruney sultonligi bilan chegaradosh. Ushbu holat Malayziyaning mintaqadagi muhim geostrategik mavqeyini belgilaydi. Shu jihatdan Malayziya bilan savdo aloqalari o‘rnatilishi va mustahkamlanishi o‘rtadagi uzoq masofaga qaramay, O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega.

Xalqaro munosabatlardagi barqaror mavqei, bag‘rikenglik va ochiqlik siyosati dunyo mamlakatlari orasida o‘ziga xos nufuz egallashiga poydevor yaratgan. Mamlakat ko‘plab mintaqaviy va xalqaro anjumanlar mezboni sifatida faoliyat yuritishining sababi ham shunda. Bu yerda jahonning qator nufuzli siyosiy, gumanitar va moliyaviy tashkilotlarining bosh shtab-kvartirasi faoliyat yuritadi.

Bugun dunyo hamjamiyati barqarorligiga tahdid solayotgan radikalizm va ekstremizm muammosi hamda unga qarshi kurashish masalalari Malayziya uchun ham ahamiyatli. O‘zbekistonning “yangi o‘zbek diplomatiyasi” tamoyiliga asoslangan tashqi siyosat doktrinasida mazkur illatlarga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat va jamoatchilik hamkorligining muhimligi markaziy o‘rin tutadi. Demak, Malayziya ushbu illatlarga qarshi kurashda Markaziy Osiyoda O‘zbekiston singari strategik hamkori bo‘lishidan manfaatdor.

Bugun Malayziyada sanoatning tez o‘sish sur’ati tabiatga ta’sir o‘tkazmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatda o‘rmon hududining keskin kamayib borishi natijasida ekologik muammolar yuzaga kela boshladi. Shu jihatdan Orol dengizi akvatoriyasida ekologik muammolarni hal etishdagi sa’y-harakatlar, turli iqlim o‘zgarishlariga adekvat moslashuv tizimlarini yaratishga intilayotgan O‘zbekiston tajribasi bilan yaqindan tanishib borish ham Malayziya uchun geosiyosiy xarakterga ega.

Malayziya Bosh vazirining O‘zbekistonga tashrifi, davlatimiz rahbari bilan uchrashuvi, imzolangan bitim va memorandumlar o‘zaro manfaatli hamkorlik, ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

TAHLIL VA TAQQOS

UYG‘ONISH QO‘NG‘IROG‘I

SAYXUNOBOD TAJRIBASI O‘ZIGA TO‘Q QATLAM SAFINI KENGAYTIRISHGA QARATILGAN

Bugun ish qidirib xorijga ketayotganlar noma’lum joyga, sinalmagan odamlar qo‘liga tasodifan borib qolmaydi. Ular o‘sha davlat tilini o‘rganib, qadr-qimmati baland ishlarga jalb etiladi. Muhimi, bu jarayonning huquqiy kafolatlangani inson qadrini ulug‘lash, istaklariga mos imkoniyat yaratib berish yo‘lidagi sa’y-harakatdir.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ammo xonadon bekasi tabiatan mehnatsevar. Uzoq yillardan buyon doya bo‘lib ishlaydi. Ishdan kelgach, tomorqaga qaraydi, ekin ekadi, egat oralab mehnat qiladi. Shunga qaramay, kamtarlik bilan: “Mendan ham yaxshi ishlaydiganlar ko‘p”, deydi. “Kasb kasalligi” sabab bunday javoblardan qanoatlanmaymiz. Onaxonning dil qulfiga yo‘l izlaymiz. Nihoyat Risolat ona sirini ochadi:

— Bu gaplarni o‘zingiz uchun aytyapman, tag‘in yozib yurmang. Boshqalar ahvolidan nolibdi, demasin. To‘ng‘ich o‘g‘limning bolasi universitetda o‘qiydi. Kontraktiga katta pul to‘lash kerak. Jahongir nabiram halizamon maktabni bitiradi. Hozir repetitorga boradi. Bunga ham pul kerak. Shularga yordam bo‘lsinda, — deydi u. — Bundan tashqari, mehnat qilishning sog‘liqqa ham foydasi katta. Shularni bahona qilib ishlayman. Nabiralarimni ham mehnatga o‘rgataman. Ikki yildan beri Jahongirim quyon boqadi. Quyonlaridan sinfdoshlariga ham sovg‘a qildi. Ukasi tovuqlarga qaraydi. Bugun tomorqadan pul topishni o‘rgansa, ertaga qiynalmaydi. Tomorqa — qo‘shimcha daromad, odam qanday kasbni egallasa ham hovlisidan unumli foydalanishni bilishi kerak.

Sayxunobod tajribasidan ko‘zlangan maqsad ham aynan shunday — yurtdoshlarimizga o‘z imkoniyatidan to‘g‘ri va to‘liq foydalanishni o‘rgatish. Zarurat bo‘lsa, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashdir.

Bu tajriba qisqa vaqtda ish bera boshladi. Masalan, aprelning o‘zida 365 ming kishining ish bilan bandligi ta’minlanib, tadbirkorlikka jalb qilindi. Qolaversa, banklar mijozlarning muammosini hal qilgani evaziga 115 ming odam ishli bo‘ldi. Mahallalarda 70 mingta mikroloyiha ro‘yobga chiqdi, 465 ming gektar tomorqaga ekin ekildi. Mazkur raqamlar ortida insonlar taqdiri, ertangi kunga mustahkam ishonchi turibdi. Endi bu ko‘lamni yanada kengaytirish kerak. Sababi, aholining o‘rta qatlami, o‘ziga to‘q oilalar yil sayin ko‘payib borishi shart. Xo‘sh, nega aynan o‘rta qatlam?

Oltin o‘rtaliqdagi odamlar

Dunyoning tabiiy muvozanati aholi qatlamini doim uch toifaga bo‘lgan. Birinchisi — eng yuqori qatlam — millionerlar. Ular yirik ishlab chiqarish egalari, ish beruvchilar. Ikkinchisi — o‘rta qatlam. O‘ziga to‘q, daromadi kundalik ehtiyojdan ortadigan ishchi-xodimlardan tortib, kichik tadbirkorlik egalarigacha. Quyi qatlam esa kambag‘allardir.

Aholi orasida qaysi qatlamning ulushi ortib borishiga qarab, mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy o‘sishi o‘zgarib boradi. Yuqori qatlam — boylar, nari borsa, aholi umumiy miqdorining 10-15 foizini tashkil qilishi mumkin. Shu bois, ularga hal qiluvchi kuch sifatida qarash unchalik to‘g‘ri emas. Chunki ularning ishini yuritadiganlar ishchi-xodimlar — o‘rta qatlamdir.

Kambag‘allar esa har qanday jamiyatning og‘riqli nuqtasi. Ular hatto farzandlarining ta’limi uchun ham yetarli imkoniyat yaratib berolmaydi. Oqibatda ilmsiz, kasb-hunarsiz qatlam ko‘payib boraveradi. Bunday jamiyatda esa eng yuqori qatlam — yirik ishlab chiqaruvchilar ham qiyinchilikka duch keladi. Chunki ular doim malakali kadrlarga ehtiyoj sezadi. Ishlab chiqaruvchi yaxshi mutaxassisdan yolchimasa, ichki bozor sustlashadi. Sababi eng ko‘p mahsulot sotib oladiganlar ham o‘rta qatlamga mansub bo‘ladi.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan sa’y-harakatlar zamirida ana shu hayotiy haqiqat mujassam. Mazkur masala bugun ijobiy hal qilinmasa, ertaga farzandlarimiz qiynaladi. Shuning uchun oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar, xususan, Sayxunobod tajribasi bugungi kunimizning muhim vazifasidir.

Hozir bor imkoniyat ishga solinib, ijtimoiy ko‘maklashishga katta e’tibor berilyapti. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani mustahkamlab qo‘yildi. Ya’ni aholini kambag‘allikdan qutqarish uchun jilovni mahkam tortganmiz. Bu quvonarli, albatta. Ammo vaqt o‘tishi bilan bu jilovni bir oz bo‘sh qo‘yishga majbur bo‘lamiz. Taraqqiyotning o‘zgarmas qonuniyatlari shunga majbur qiladi. Chunki kambag‘allikni faqat boshqaruv kuchi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Rivojlangan mamlakatlar tarixi, uzoq o‘tmish saboqlaridan xabardor odamlar bu fikrga qo‘shilishiga ishonamiz.

Shu bois, bugun jamiyatda kurashchanlik ruhi kuchayishi kerak. Negaki kambag‘allik barham topishi uchun aholiga ishonch va imkon berish zarur. Yangi O‘zbekistonda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali ishonch va imkoniyat yaratilmoqda. Endi bundan oqilona foydalanishimiz shart. Har birimiz Risolat ona kabi farzandlarimiz ilmli bo‘lishiga sharoit yaratish bilan birga, qo‘shimcha daromad topishni o‘rgatishimiz kerak. Shunda aholining oltin o‘rtaliqdagi qatlami ko‘payadi. Zero, bu qatlam dunyo yaralgandan buyon jamiyat hayotini hal qiladigan asosiy kuch bo‘lib kelyapti. Bu qatlam malakali kadr sifatida iqtisodiyotning barcha jabhasida birdek faoliyat yuritadi. Ayni paytda ular boyib, yuqori qatlamning ko‘payishiga hissa qo‘shadi. Yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar safi kengayadi.

Yuqorida 365 ming kishining bandligi ta’minlanib, tadbirkorlikka jalb qilinganini aytdik. Bu aprel oyidagi ko‘rsatkich. Demak, bir oyda shuncha fuqaro oltin o‘rtaliqdagi o‘rnini mustahkamladi. Bunda, albatta, ularga bildirilgan ishonch, davlat yaratgan imkoniyatning o‘rni katta. “Mahalla yettiligi” tashkil etilib, joylardagi masalalar tezkor yechila boshlandi. Tabiatimizdagi mehnatkashlik “kodi” Sayxunobod tajribasi orqali ishga tushirilmoqda.

Masalan, har bir mahallaga iqtisodiy komplekslar rahbarlari biriktirildi. Ular kambag‘al oilalar bilan manzilli ishlayapti. Maqsad — yurtdoshlarimiz daromadini oshirishga ko‘mak berish. Shunga yarasha tizim ham yaratildi. Past foizli kreditlar, subsidiya va imtiyozlar berilmoqda. Agrosanoat mutaxassislari ko‘magida aholi tomorqalarida serdaromad ekinlar ekilyapti. Buning zamirida xalq farovonligini ta’minlash orqali mamlakat taraqqiyotiga erishishday ezgu niyat bor. Uning to‘la ro‘yobga chiqishida esa aholi bilan bevosita ishlaydigan quyi bo‘g‘indagi mas’ullarning hissasi katta.

“Mahalla yettiligi”ga keng imkoniyat berilayotgani bejiz emas. Bu mas’uliyatni har bir mutasaddi to‘la anglab yetishi, o‘zini ham, o‘zgalarni ham soxta raqamlar bilan aldamasligi kerak. Zero, bugungi sa’y-harakatlarimiz ijtimoiy mavqeimiz, iqtisodiy ahvolimizdan qat’i nazar, farzandlarimiz kamoloti, kelajagini belgilab beradi. Shu bois, Sayxunobod tajribasi doirasidagi ishlarda mahalla faollari bir soniya ham sustkashlikka yo‘l qo‘ymasligi shart. Chunki hozir mazkur yo‘nalishda qanday yo‘l bo‘lsa, barchasidan birdek foydalanishga intilyapmiz. Buni mehnat migrantlariga munosabatda ham ko‘rish mumkin.

Mehnat muhojiri kundaligi: sog‘inch, og‘riq va islohotlar

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yanvar-mart oylarida 58 ming, aprelda esa 57 ming yurtdoshimiz mehnat migratsiyasidan qaytgan. Ular orasida sayxunobodlik Azamat Aripov ham bor. Davlatimiz rahbari Sayxunobod tajribasini ilgari surgach, u xorijdan qaytib keldi. Azamat kabi yigitlar bugungi islohotlarga ishonib qaytdi. Endi bu ishonchni oqlash uchun “mahalla yettiligi”, joylardagi mutasaddilar ko‘rsatmalarni so‘zsiz bajarishi kerak.

Bir muddat avval Azamat bilan suhbatlashgan, otasi Tursunboy Aripov haqida maqola yozgan edim. O‘shanda Azamat gap orasida: “Bo‘ldi, aka, qaytib ish uchun chet elga bormayman, shuncha sang‘iganim yetadi”, degandi. Bu so‘zlarni aytish qanchalik og‘riqli ekanini his etgandim. Chunki xorijda ishlash, uydan, oiladan uzoqda bo‘lish qandayligini yaxshi bilaman.

Ha, o‘n ikki yil avval men ham mehnat migranti edim. O‘n oy qulay sharoitda va unchalik og‘ir bo‘lmagan ishda yaxshi maosh olib ishladim. Uyga qaytsam yana ishsizlik va pulsizlikdan qiynalishimni bilsam-da, ana shunday imkoniyatda yashashga ham bor-yo‘g‘i o‘n oy bardoshim yetgan. Chunki halol mehnat bilan o‘sha yurt qoidalariga amal qilib ham o‘zingni aybdor his etish og‘ir. Ko‘chada posbonlar ko‘rinsa, panalab o‘tish azobini aytmaysizmi!

Qo‘lga tushsangiz, hujjatingiz joyida ekani ham, qoidabuzar emasligingiz ham ish bermaydi. Tamagir politsiyachi o‘z tilida do‘q-po‘pisa qiladi. Gap muddaoga kelgach, tushunmovchilik bo‘lmasligi uchun: “Yuz sum ber”, deydi. U ona tilingdagi bu so‘zlarni tama uchun atayin o‘rgangan. Shu bois, bu so‘zlar yurakka og‘ir botadi.

Shundan bo‘lsa kerak, mehnat migrantlari haqidagi yangiliklarga jiddiy e’tibor beraman. Bugun xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimizga zarur vaqtda davlat ijtimoiy-iqtisodiy yordam berayotganidan quvonaman. O‘zga yurtda o‘zingni boshqalar kabi teng tutish, muammo paydo bo‘lsa, seni qo‘llaydigan insonlar borligini his etish — juda katta baxt.

Yana bir muhim jihatni unutmaslik kerak. Ichki imkoniyatlar to‘la ishga solinsa ham xorijdan ish qidiradiganlar topiladi. Negaki ayrimlar million yillar avval ham o‘z o‘rnini u yoki bu davlatdan axtargan. Bugun migratsiya xalqaro tendensiyaga aylandi. Shunday vaziyatda har bir mamlakat o‘z fuqarolari uchun xavfsiz va ishonchli migratsiyani tashkil etib berishi zarurati tug‘iladi. Bu borada ham keyingi yillarda juda ko‘p o‘zgarish bo‘ldi.

Jumladan, joriy yil 4-aprelda Prezidentimizning “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Shu o‘rinda mazkur farmonga binoan qanday ishlar qilinayotgani, sohadagi yangiliklar haqida mutaxassis fikri bilan tanishsak.

— Farmonda bir qator muhim vazifalar belgilab berildi. Jumladan, “Xorijda ish” mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasida ro‘yxatdan o‘tgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga moddiy yordam berish nazarda tutilgan. Ya’ni ular xorijiy tillar yoki kasb bo‘yicha malaka imtihonidan muvaffaqiyatli o‘tib, sertifikat olsa, xarajati qoplanadi. Qolaversa, xorijda mehnat qilish uchun “ishchi vizasi”ni rasmiylashtirish, yo‘l chiptasi sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar ham qoplanadi. Bu ishlar xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi mablag‘i hisobidan bajariladi. Bugun ishonchli migratsiyani tashkil etish uchun xalqaro hamkorlikka katta e’tibor qaratyapmiz. Hozirgacha xorijdagi salohiyatli ish beruvchilarni qidirib topish hamda ishga joylashtirish borasida bir qancha kelishuvlarga erishdik. Jumladan, joriy yilning dastlabki 4 oyida 12 davlatning 18 ta yirik ish beruvchi tashkiloti va rekruting agentliklari bilan muzokara olib borildi. Natijada ishchi kuchi jalb qilish bo‘yicha 7 ta ish beruvchi va rekruting agentligi bilan shartnomalar imzolandi. Bu jarayon va hamkorlikni yanada kengaytirish borasidagi izlanishlar hamon davom etmoqda, — deydi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bo‘lim boshlig‘i Azim Ahmadov. — Shu bilan birga, farmonda xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimizning haq-huquqlarini himoya qilish borasida ham alohida band mavjud. Xususan, xorijda ishlayotganlar zo‘ravonlikka uchrasa yoki majburiy mehnatga duchor bo‘lsa, mehnat hamda boshqa huquqlari buzilib, murakkab moliyaviy ahvolda, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz va yashash uchun mablag‘siz qolsa, bunday fuqarolarga advokat, yuridik xizmat ko‘rsatuvchi, huquqni muhofaza qilish tashkilotlar xizmati uchun belgilangan tartibda haq to‘lab beriladi.

Deylik, siz xorijda qiyin vaziyatda qoldingiz. Bunday paytda himoyangiz uchun advokat yoki ayrim tashkilotlarning qonuniy himoyasidan foydalanishingiz kerak. Ammo bunga mablag‘ingiz yo‘q. Shunday vaziyatda siz davlatdan moddiy yordam olishingiz mumkin. Bu uydan olisda og‘ir vaziyatda qolgan odam uchun tunda quyosh porlashiday yorug‘lik, degani.

Bilimdon, kasb-hunarli kishilar har joyda aziz

Hayotda o‘z o‘rnini topish insonning bilimi va kasbini qanchalik puxta egallagani bilan bog‘liq. Mehnatiga yuqori haq olishini ham aynan shu jihatlarga bog‘lash mumkin. Shuning uchun ham keyingi paytlarda xorijga yuborilayotgan mehnat migrantlarining bilimini oshirish, muayyan kasbga o‘qitishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu orqali xorijda qadrlanadigan kasb egalari uchun ish topib berish choralari ko‘rilyapti. Masalan, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ayni paytda 16 mamlakat, jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi iqtisodiyoti rivojlangan 10 davlatda 160 mingga yaqin bo‘sh ish o‘rni mavjudligini aniqladi.

Bunday izlanish va hamkorlik muayyan soha va sanoqli hududlarga bog‘lanib qolmaslikni ta’minlaydi. Hozirgi global o‘zgarish va taraqqiyot davrida bu nihoyatda muhim jihat. Ko‘p vektorli siyosat yuritilishi, barcha davlatlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatilgani ana shunday muhim pallalarda qo‘l keladi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: xo‘sh, bunday keng ko‘lamli hamkorlik bizga qanday naf bermoqda?

— Yurtdoshlarimizni inson mehnati qadrlanadigan, shunga yarasha haq to‘lanadigan mamlakatlarga yuborishni maqsad qilganmiz, — deydi Azim Ahmadov. — Jumladan, yil boshidan aprelgacha bo‘lgan davrda 31 ming 410 fuqaroning xorijiy davlatlarda tashkiliy va manzilli tartibda ishga joylashishiga ko‘maklashildi. Ayni paytda mehnat migrantlari faoliyatining monitoringi ham yuritilmoqda. Maqsad — mehnat migrantlarining vaziyatini bilish, ish beruvchi mehnat shartnomasi shartlarini qay darajada bajarayotgani, qolaversa, yurtdoshlarimizning mehnat qilish va yashash shart-sharoitlarini o‘rganish. Shu asosda zarurat bo‘lganda ularga yordam beriladi. O‘rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklar hamkor idoralar bilan birgalikda bartaraf etiladi.

Yil boshidan buyon agentlik vakolatxona (vakillik)lari, konsullik muassasalari 251 korxona va tashkilotda ishlayotgan 17,1 mingdan ortiq mehnat migranti faoliyatini monitoring qildi. Natijada 98 mingdan ziyod mehnat migrantiga axborot-maslahat xizmati ko‘rsatildi.

Xorijda ishlash istagidagi fuqarolarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish uchun yetarli shart-sharoit yaratilmoqda. Jumladan, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi 32 ta monomarkaz va filiallari, kasb-hunarga o‘qitadigan 53 ta markaz, qurilish sohasi bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlaydigan 13 ta markaz hamda boshqa turli vazirlik va idoralar, nodavlat ta’lim muassasalari, shuningdek, 9 ta xorijiy hamkor bilan birga ochilgan kurslar imkoniyatidan samarali foydalanilmoqda.

Bugun ish qidirib xorijga ketayotganlar noma’lum joyga, sinalmagan odamlar qo‘liga tasodifan borib qolmaydi. Ular o‘sha davlat tilini o‘rganib, qadr-qimmati baland ishlarga jalb etiladi. Muhimi, bu jarayonning huquqiy kafolatlangani inson qadrini ulug‘lash, istaklariga mos imkoniyat yaratib berish yo‘lidagi sa’y-harakatdir.

Paxta yetishtirish, yig‘ib-terishga maktab o‘qituvchi va o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari, shifoxonalar va boshqa davlat tashkilotlarini majburan jalb qilish cheklandi, klaster va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida bozor iqtisodiyoti prinsiplariga ko‘ra kelishuvlar asosida ishlash yo‘lga qo‘yildi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 21-may, 97-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

SHARH

TO‘QIMACHILIK XABI

XALQARO DARAJADA TAN OLINGAN KAMIDA 10 TA MAHALLIY BREND YARATILADI

Mamlakatimiz dunyoda sifatli paxta yetishtiruvchi sanoqli davlatlardan biri. Tabiiyki, uni chuqur qayta ishlash orqali tikuv-trikotaj sanoatini zamon talablari asosida rivojlantirish va eksport ko‘lamini keskin oshirish imkoniyati yuqori. Ayniqsa, sohaga qaratilayotgan e’tibor, tadbirkorlarga yaratilayotgan imtiyoz va erkinliklar soha rivojiga keng yo‘l ochayotgani bilan ahamiyatlidir.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Keyingi yillarda to‘qimachilik sohasi hamda uning xomashyo manbayi bo‘lgan paxta yetishtirishda tub yangilanishlar yuz berdi. Xususan, paxta yetishtirish bo‘yicha davlat buyurtmasidan butunlay voz kechildi, uni yetishtirish va yig‘ib-terib olish yuz foiz klasterlar tomonidan amalga oshirilishiga erishildi. Eng muhimi, paxta yetishtirish, yig‘ib-terishga maktab o‘qituvchi va o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari, shifoxonalar va boshqa davlat tashkilotlarini majburan jalb qilish cheklandi, klaster va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida bozor iqtisodiyoti prinsiplariga ko‘ra kelishuvlar asosida ishlash yo‘lga qo‘yildi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 1-maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

— Mazkur hujjatga asosan, gazlama, trikotaj mato ishlab chiqarish va bo‘yash hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish orqali ip-kalavani qayta ishlash darajasi 2027-yil yakunigacha bosqichma-bosqich 100 foizga olib chiqiladi, — deydi Savdo-sanoat palatasi boshqarma boshlig‘i Sarvar Niyozov. — Xususan, ilk bosqichda Andijon va Namangan viloyatlaridagi to‘qimachilik sohasiga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalari hamda Toshkent viloyatidagi industrial texnoparkni to‘liq infratuzilma bilan ta’minlash, shu jumladan, suv tozalash inshootlarini qurish ishlari 2024-yil yakuniga qadar tugallanadi. Gazlama, trikotaj mato va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va bo‘yash uchun zarur bino va inshootlarni tadbirkorlarning talablari va loyihalari bo‘yicha qurib, tayyor holatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan yoki ijara asosida berish imkoniyati yaratiladi.

Farmon bilan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Xususan, 2026-yil 1-yanvargacha to‘qimachilik sanoat zonalari direksiyalari va ularda tashkil etiladigan korxonalar mol-mulk, yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan ozod etiladi. Respublikani to‘qimachilik xabiga aylantirish va kamida xalqaro darajada tan olingan 10 ta mahalliy brendni yaratish ustidagi ishlar manzilli tashkil etiladi.

To‘qimachilik mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlar yaratish maqsadida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati loyihalari uchun tijorat banklarida ochilgan 12 million dollarlik kredit liniyalari hamda ajratilishi nazarda tutilgan 100 million dollar miqdoridagi mablag‘ hukumat komissiyasi qaroriga asosan, to‘qimachilik sanoat zonalari direksiyalariga 10 yil muddatga ajratiladi. Bunda ushbu mablag‘lar 3 yillik imtiyozli davr bilan, yillik 4 foiz va qolgan davr uchun yillik 5 foiz stavkada tadbirkorlar talablari asosida ishlab chiqarish binolari, shuningdek, suv tozalash inshootlarini qurish maqsadida berilishi belgilangan.

To‘qimachilik sanoat zonalarida quriladigan ishlab chiqarish bino-inshootlari tadbirkorlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri 7 yilgacha muddatga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan yoki ijara asosida ajratiladi. Gazlama, trikotaj mato, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va bo‘yash uchun asbob-uskunalar xarid qilish maqsadida xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlarning 7 million dollardan ortiq bo‘lmagan qismi bo‘yicha foiz xarajatlarining 6 foiz banddan yuqori qismi 5 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda yo‘lga qo‘yish orqali Yevropa davlatlarida keng qamrovli targ‘ibot kampaniyalari tashkil qilish borasida belgilangan vazifalar bo‘ldi, — deydi “Navbahor tekstil” paxta-to‘qimachilik klasteri rahbari o‘rinbosari Ashraf Shernazarov. — Bu biz uchun tajribali savdo agentlarini ishga yollagan holda yetakchi sorsing kompaniyalar, brend va riteylerlarni jalb qilish, buyurtmasini korxonalarga joylashtirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan kompensatsiya qilib beriladi.

Hujjatda taqdim etilayotgan imkoniyatlardan yana biri shuki, 2027-yil 1-yanvarga qadar to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan, import qilinadigan xomashyo va boshqa materiallar, butlovchi va ehtiyot qismlar 2027-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod qilinadi.

— Bizni eng ko‘p quvontirgani hujjatda brendlar bilan ishlashning yaxlit tizimini uzoq muddat faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Ishlab chiqarish va eksport uchun grant, subsidiya kabi imtiyozlar to‘qimachilik va trikotaj korxonalarida innovatsiya va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishni rag‘batlantiradi.

— Hujjat talablari asosida Toshkent viloyatidan Toshkent shahriga o‘tgan hududda xizmat ko‘rsatish obyektlarini qurishga qulay bo‘lgan 30 gektar yerda mahalliy yengil sanoat mahsulotlari hamda zarur import xomashyosining ulgurji bozori va markazi tashkil etiladi, — deydi “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi raisi o‘rinbosari Muhammadjon Jumaniyozov. — Xorijlik fuqarolar O‘zbekiston hududidagi chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlaridan tovarlarni sotib olganda, to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarish — “tax free” tizimi yanada kengaytiriladi.

Andijon, Buxoro, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati sohasida dizayner, marketolog va konstruktorlar markazlari va sinov laboratoriyalarini tashkil etish borasida qator ishlar qilinadi. Xususan, moda va dizayn sohalari rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish orqali milliy brendlarni yaratish bo‘yicha takliflar tayyorlash hamda markazlarga kamida 10 nafardan yuqori malakali xorijlik mutaxassis jalb qilish rejalashtirilmoqda.

Mamlakatimizda tadbirkorlar reytingi joriy qilinganiga ko‘p vaqt bo‘lmadi. Lekin bugun ko‘plab tadbirkorlar reytingda yuqoriroq o‘rinlarda bo‘lishga harakat qilmoqda. Mazkur hujjat ham reytingi yaxshi korxonalar uchun qator imtiyozlarni nazarda tutadi.

Masalan, shu yil 1-maydan 2026-yil 1-mayga qadar “A” va undan yuqori toifadagi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj yo‘nalishidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi.

Bugun mamlakatimizda 100 foiz eksportga ishlayotgan korxonalar ko‘p. Sifat yaxshi va narx ustunligi borki, mahsulot xorij bozorlariga kirib bormoqda. Aslida, bu mahsulotlarga ichki bozorda ham talab yuqori. Shu bois, farmonda Toshkent shahrida va bosqichma-bosqich hududlar markazlaridagi yirik savdo komplekslarida “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” brendi ostida milliy mahsulotlar do‘konlarini tashkil qilish vazifasi qo‘yildi. Shu bilan birga, mahalliy trikotaj matolarni sotish va qayta ishlash uchun Bangladesh, Misr, Marokash va Vyetnamning erkin iqtisodiy zonalarida savdo uylari ochilib, omborlar ijaraga olinadi.

Bir so‘z bilan aytganda, mazkur hujjat to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirish, pirovardida sohaning investitsion jozibadorligi va eksport salohiyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Agrotarmoq

SANOATLASHAYOTGAN QISHLOQ DOVRUG‘I

DUNYO BOZORINI ZABT ETAYOTGAN ISHBILARMONLAR

Bag‘dod tumanidagi “Chekxitoy” mahalla fuqarolar yig‘inida o‘tgan mavsumda umumiy qiymati 800 ming AQSH dollari qiymatiga teng mochalka sanoat usulida qayta ishlanib, eksport qilindi. Joriy mavsumda bu qiymatni bir million dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Chekka qishloqning xaridorgir mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulot sifatida iste’mol bozoriga olib kirish borasidagi tajribasi mahallalarda duv-duv gap bo‘lmoqda. Halol mehnati ortidan farzandini o‘qitayotgan, to‘y qilayotgan, zamonaviy uy-joy qurib, yangi mashina olayotgan, to‘kin va farovon yashayotgan mirishkorlar faoliyati ko‘pga namuna.

Qishloqning dehqonchilik madaniyatiga bu noyob va foydali ekin turi kirib kelganiga yarim asrdan oshdi. Aytishlaricha, shu yerda yashagan Yo‘ldoshali ota Kavkazda bir gruzin bilan tanishib qoladi va o‘sha yerdan ilk bor mochalka urug‘ini olib kelib, tomorqasida ekib, parvarishlaydi. Yetishtirilgan hosilni jomadonga joylab, Kavkazga olib borib sotadi. Bir oila hayot tarzida boshlangan bu ishlar sobiq ittifoq davrida xufiyona qilingan, albatta.

— Bu ekin, asosan, aholi tomorqa xo‘jaligida ekilib, faqat xomashyo tariqasida iste’molga chiqarilgan, xolos. Daromad salmog‘i ham shunga yarasha bo‘lgan, — deydi “Yasmin-2022” oilaviy korxonasi rahbari Ahmadjon Sherqo‘ziyev. — Hamon esimda: aholidan yig‘ib olingan xomashyoga dastlabki ishlov berish bilan cheklanib, yashirincha Rossiya, Gruziya bozoriga olib borib, suvtekin berib kelardik. Chunki bizda uni to‘liq qayta ishlash, sifatli mahsulot tayyorlash uchun sharoit ham, imkoniyat ham yo‘q edi. Bu ish bilan shug‘ullanganlar chayqovchi, olibsotar, deb qoralangan. Bular yaqin o‘tmishdagi gaplar. Endi odamlarning hayot va ish tarzi o‘zgardi. Shu kunga qadar faqat birlamchi xomashyo vazifasini o‘tagan mahsulotni sanoat usulida qayta ishlab, tayyorlash amaliyotini yo‘lga qo‘ydik. Ayni kunlarda Turkiya, Fransiya, AQSHga tabiiy toza mahsulot yetkazib berish bo‘yicha muzokara olib boryapmiz.

Oilaviy korxona tashabbusi bilan Moskvada savdo uyi tashkil etildi. Bu mochalka yetishtirish, tayyor mahsulotni peshma-pesh iste’mol bozoriga olib kirish, buyurtma va mijozlar safini kengaytirish imkoniyatini bermoqda. Korxonada 20 ta doimiy, 25 ta mavsumiy ish o‘rni yaratildi.

— Ishsizligim uchun “Ayollar daftari”ga kiritilganman, — deydi Zamiraxon Niyozova. — Imtiyoz asosida menga 15 sotix ekin maydoni ajratib berilgan. Yerga mochalka, sabzavot ekib, yaxshigina daromad olyapmiz. Bir dona mochalkaning ulgurji bahosi 8-9 ming so‘m. Bu bir mavsumning o‘zida 20 million so‘mdan ortiq daromad olish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, kasanachilik asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarib, haq olamiz.

Avvallari ham tomorqalarda turli ekinlar parvarishlab kelingan. Lekin hamma ish qo‘l mehnatiga asoslangani bois, katta hajmda mahsulot tayyorlash imkoniyati yo‘q edi. Bugunga kelib, barcha ish jarayoni avtomatlashtirildi.

— Mochalka ustki qatlamini tozalash uchun ilgari suv to‘la hovuzda haftalab saqlashga to‘g‘ri kelgan, — deydi “Yayra” brendi ostida mahsulot ishlab chiqarayotgan Hayotjon G‘oziyev. — Bu juda katta mehnat, ortiqcha vaqt va mablag‘ talab etgan. Endi bu jarayon uchun 3-4 soat kifoya. Natijada mahsulot ishlab chiqarish ko‘lami oshdi, sifati yaxshilandi.

“Mahalla yettiligi” qishloqqa sanoat olib kirish, tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirish, imkoniyatlarni kengaytirish orqali fuqarolarning o‘zini va boshqalarni band qilishiga erishish, mablag‘dan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish ishlarini tizimli bajarmoqda. Shu kunga qadar “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan 135 fuqaroga, shuningdek, mehnat migrantlariga 15 sotixdan ekin maydoni ajratilib, o‘zini o‘zi band qilishiga erishildi. Bu kabi misollar ko‘p. Eng muhimi, aholi turmush tarzini yaxshilash, dasturxonlar to‘kinligini ta’minlashga qaratilgan ishlar mahalladagi har bir oilada bo‘y ko‘rsatmoqda.

— Men va turmush o‘rtog‘im ishsizligimiz uchun ijtimoiy daftarlarga kiritilganmiz, — deydi Obidjon Komilov. — Bizga 15 sotix yer o‘n yil muddatga berilgan. Bu yerga mochalka ekib, daromad olyapmiz. Sababi, bu mahsulotni qayta ishlash bizda yaxshi rivojlangan, o‘ziyam xaridorgir. Mavsumda 3 mingtadan ortiq mahsulot yig‘ishtirib olamiz. Ekin oralig‘ida sabzavot yetishtiryapmiz. Bu ham qo‘shimcha daromad topish imkonini beradi.

Mahallada mochalka va supurgi yetishtirish hamda qayta ishlash borasidagi ishlar kun sayin kengaymoqda. Shu kunga qadar bu yo‘nalishda 3 ta kooperatsiya tashkil etildi. Ular tashabbusi bilan aholi va fermerlarga sarxil urug‘ yetkazib berish, yetishtirilgan xomashyoni dalaning o‘zidan sotib olish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ayni kunda mahalla hududidagi 40 gektar ekin maydonida mochalka, bug‘doydan bo‘shagan 4 ming gektardan ortiq yerda kooperatsiya asosida supurgi yetishtirilyapti.

— Mahallamiz sanoatlashgan, desam mubolag‘a bo‘lmaydi, — deydi MFYdagi hokim yordamchisi Nurmatjon G‘oziyev. — Endi faqat xomashyo emas, tayyor mahsulot ishlab chiqarish tashabbusi quloch yoymoqda. Masalan, birinchi chorakning o‘zida umumiy qiymati 3 milliard so‘mdan ortiq tayyor supurgi eksport qilindi. Tashqi bozorga supurgi yetkazib berishda Moldovani ortda qoldirdik. O‘tgan yilning o‘zida 600 ming AQSH dollari qiymatida supurgi eksport qilindi. Sanoat yo‘nalishida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan tashabbuskorlarga umumiy qiymati 300 million so‘mlik imtiyozli kredit berildi.

Yangi ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun mahalladagi bo‘sh maydonda yengil konstruksiyali shoxobchalar ochish borasida ishlanyapti. “Andijon — O‘sh” katta avtomobil yo‘li bo‘yida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasiga doir 90 ta istiqbolli loyiha amalga oshirilmoqda. Bu bilan bir vaqtning o‘zida 200 ga yaqin kishining bandligi ta’minlanadi.

Yaqingacha bu qishloqda oddiy ichimlik suv ham yo‘q, ta’mirtalab yo‘llar, elektr ta’minotidagi uzilishlar aholining sillasini quritgan edi. Bugungi holat, shart-sharoit butkul o‘zgacha. Aholining kundalik hayot tarzi uchun muhim bo‘lgan infratuzilma tarmoqlari qurilmoqda. Yangi transformator, simyog‘och va tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi. 500 dan ortiq xonadonga toza ichimlik suv kirib bordi. “Tashabbusli budjet” loyihasi asosida 3,5 kilometr ichki yo‘l asfalt qilindi, shag‘al yotqizildi. Saxovatpesha kishilar ko‘magida kam ta’minlangan 3 ta oilaga yangi uylar qurib berildi.

Qishloqqa sanoat olib kirish, xomashyodan mahsulot ishlab chiqarish yo‘lida boshlangan ishlar, berilgan imtiyoz va imkoniyatlar tufayli chekka qishloqqa yangi hayot nafasi kirib keldi. Bu, o‘z navbatida, aholini ulkan orzu-maqsadlar sari undamoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangicha yondashuvlar

O‘tgan yillarda oliy ta’lim tizimiga yangicha, dual ta’lim tizimi joriy etildi, bir necha oliygohda sinov tariqasida bu tizim ishlay boshladi. An’anaviy ta’lim shaklida talabalarning asosiy vaqti nazariy bilimlarni egallashga ketadi, natijada amaliyotga vaqt kam qoladi. Xalqimizda bunday gap bor: “Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal”. Yoshlarning nazariy bilimlar bilan tengma-teng amaliyot bilan shug‘ullanishi ularning bilimlari yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

DUAL TA’LIM

yetuk kadrlar tayyorlashda samarali yechim bo‘la oladimi?

Mansurbek JABBOROV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yana bir jihati bor. Bugungi tezkor davrda har kuni yangilanishlarga duch kelyapmiz. Bunday sharoitda ilg‘or fikrlaydigan, malakali, bugungi kun talablariga mos kadrlar zarur. Amalda asosiy vaqti nazariy bilimlar egallashga sarf bo‘lgan, amaliyotga chiqmagan, chiqsa ham qog‘ozbozlik uchun yoki “amaliyot o‘tadingmi, o‘tadim” deyish uchun vaqt o‘tkazgan talabalarning kelajakda ishga joylashishi bilan bog‘liq muammolar borligini ham inkor eta olmaymiz. Sodda aytsak, an’anaviy ta’lim tizimida tahsil olgan talabalar korxona va tashkilotlar talabiga javob bermayapti. Yangicha tizim bu muammoni bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin.

Tizim talabalarning yuqori natijalarga erishishida ko‘makchi vazifasini bajarmoqda. Ayni vaqtda 3- va 4-kurs talabalarini o‘qitishda “Kasb egasi” dual ta’lim tizimini tajriba-sinov tariqasida qo‘llab kelyapmiz. Talabalar olingan nazariy bilimlarini amaliyotda bevosita kuzatish, qo‘llash orqali amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmoqda.

Talabalar 5 million so‘mgacha maosh olmoqda

Davlatimiz rahbari 2022-yil 28-iyun kuni paxta hosildorligini oshirish va to‘qimachilik mahsulotlari eksportini ko‘paytirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yangi o‘quv yilidan boshlab Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida dual ta’lim tizimini joriy qilish bo‘yicha

topshiriq berdi. Unga ko‘ra, haftaning uch kunida nazariy darslar, qolgan uch kunida to‘qimachilik texnoparki va korxonalarda amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘qitish tizimi tatbiq etiladigan bo‘ldi. Xo‘sh, bugun institutda bu tizimning natijadorligi qanday kechmoqda?

— 2022-2023 o‘quv yilidan universitetimizda darslar dual ta’lim tizimi asosida o‘tilmoqda, — deydi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti prorektori Xolida Komilova. — Talabalarning 15-20 foizi o‘qish davrining o‘zidayoq muayyan oylik maoshga ega — 5 million so‘mgacha olyapti. Ular o‘rganib, yetuk kadr sifatida shakllanyapti, ham pul topyapti. Ushbu tizim to‘g‘ri tashkil etilsa, tizim ishtirokchilari bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari, ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalar, boshqa mas’ul tashkilotlar vazifalari to‘g‘ri taqsimlanib, amalga oshirilishi qat’iy nazoratga olinsa, albatta, istiqbolda eng yaxshi ta’lim shakllaridan biriga aylanadi.

Talabalar-chi? Ular qanday natijalarga erishmoqda?

— Dual tizimi orqali O‘zbekiston mehnat bozoridagi real ehtiyojlar, korxona va tashkilotlar, iqtisodiyot tarmoqlaridagi aniq ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan ta’limni uyg‘unlashgan holda tashkil etish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yangi mexanizmlari joriy qilina boshlandi, — deydi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi departament boshlig‘i O‘tkir Alijonov. — Bugungi kunda 230 dan ortiq professional ta’lim muassasasidagi yoshlar dual ta’lim olmoqda. Buning uchun 4122 ta korxona va tashkilot bilan hamkorlik qilinmoqda. Korxona va tashkilotlarning 3472 nafar malakali xodimi ustoz sifatida biriktirilgan bo‘lib, ular tomonidan talabalarning amaliy ko‘nikmalari bevosita ish joylarida shakllantirilmoqda. Shuningdek, ayni vaqtda avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, maktabgacha ta’lim, yengil sanoat va xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda dual ta’limning ulushi boshqa sohalarga qaraganda ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin.

Birgina misol. Andijon viloyatidagi Asaka agrotexnologiyalar texnikumi hamda O‘zbekistondagi yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona hisoblangan “UzAvto Motors” aksiyadorlik jamiyati o‘rtasida dual ta’lim shaklida o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlik o‘rnatilgan.

Bu qanday tizim?

Dual ta’lim amaliyotga tatbiq etilganiga hali ko‘p bo‘lmadi. Lekin bu tizimda dars o‘tilayotgan ta’lim muassasalari talabalari yuqori natijalarga erishmoqda.

Dual ta’lim talabaga keng imkoniyatlar yaratmoqda. U o‘qish jarayonida korxonada amaliy ko‘nikmalarga va jamoada muayyan obro‘ga, nufuzga ega bo‘ladi. Kompaniya to‘laydigan stipendiya tufayli o‘qish jarayoniga jiddiy yondashadi. Ishlab chiqarishda o‘zini qanday namoyish eta olganiga qarab talaba oliygohni tamomlaganidan keyin xuddi shu kompaniyaga ishga taklif qilinishi mumkin. Bunda ish qidirishga vaqt sarflab o‘tirmaydi, yangi lavozim majburiyatlarini egallashga harakat qilmaydi, yangi jamoalarga ko‘nikishi ham shart bo‘lmaydi. Ko‘pincha kompaniyada o‘qish vaqtida yuqori bilim va qobiliyatni namoyish eta olgan bitiruvchini muvaffaqiyatli istiqbol kutadi.

Ish beruvchi korxona talablariga muvofiq keluvchi malakali mutaxassislarni qo‘lga kiritadi. Natijada yaqin kelajakda ta’lim oluvchiga sarf etgan kapitalidan o‘rta muddatli istiqbolda ko‘proq samaraga ega bo‘ladi. Korxona xodimlarni tanlash va qayta o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlarni iqtisod qilib qoladi.

— Ushbu tizim orqali xarajatlarini qoplab, oilasiga ko‘maklashayotgan tengdoshlarimiz yetarlicha, — deydi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi Surxon Xo‘jamurodov. — Tizimning bizga ma’qul kelgan yana bir jihati — dual ta’limda talabalarga ish staji hisoblab boriladi. Keyinchalik ishga joylashish istagida bo‘lgan talabalarga ish staji umuman muammo bo‘lmaydi. Hozir kursdoshlarimizning ko‘pi amaliyot o‘tayotgan joyida ishga joylashgan.

Germaniya tajribasi samarali

Dual ta’lim Germaniyada ham ancha rivojlangan. Nemislar 1960-yillar o‘rtalaridan mazkur tizimni amaliyotda qo‘llay boshlagan.

Mamlakatda har yili 500 ming yosh dual ta’limda ishtirok etish uchun korxonalar bilan kelishuvga erishadi. 74 foiz bitiruvchi OTM ta’limi yakunlangach, ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzadi. Korxona tomonidan talabalarga malakali ustoz biriktiriladi. Bunda ustozlarning maxsus sinovdan o‘tgani, sertifikatga ega ekaniga ahamiyat qaratiladi. O‘zbekistonda bu tizimni qo‘llashda ham Germaniya tajribasi qo‘l kelyapti.

Hali yo‘lning boshidamiz. Yangi tizimning samara bera boshlagani uni baholashimiz yoki bu sohada to‘g‘ri yo‘lni topib olganimizdan quvonishimiz uchun yetarli asos emas. Bizga umid berayotgan jihat bitta: bugun ushbu tizim talabalarning kelajagi uchun poydevor vazifasini o‘tamoqda, bu orqali yoshlar ham o‘qib, ham ishlab, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiryapti. Haqiqiy natija esa sohalarda zamonaviy va yetuk kadrlar ish boshlaganda ko‘rinadi.

E’tirof

Hafta so‘ngida yana bir o‘quv yili yakuniga yetadi. Demak, pedagoglarning bir yillik faoliyati, vaqti, sarflagan ichki quvvati sarhisob qilinadigan pallada turibmiz. Ayrim o‘qituvchilar allaqachon ajoyib natijalarni qayd etib, xotirjam tortishni boshladi. Gap shundaki, aprel-may oylarida pedagog kadrlar malakasi sinovdan o‘tkazildi. Yangilangan tartibga ko‘ra tashkil etilgan attestatsiyada ko‘plab pedagog kadrlar ijobiy natijalarni qo‘lga kiritdi. May oyining eng katta xushxabari esa vazir jamg‘armasi hisobidan har oylik ustama oladigan pedagoglar aniqlangani bo‘ldi.

VAZIR JAMG‘ARMASI USTAMASI

Pedagoglar undan qanday naf ko‘ryapti?

Bir maktabdan olti o‘qituvchi rag‘batlantirildi

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida mehnat qilayotgan, o‘quvchilari yuqori natijalarga erishgan, o‘z ustida doimiy ishlaydigan, alohida o‘qitish uslubiga ega malakali pedagoglarga vazir jamg‘armasi hisobidan har oylik ustama belgilash maqsadida ikki bosqichli tanlov jarayonlari o‘tkazildi. Saralashdan so‘ng ro‘yxat tasdiqlandi.

— Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan nizomda vazir jamg‘armasi ustamasi uchun ishtirokchilar kvotasini shakllantirish tartibi ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra, har yili Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan har oylik ustama to‘lanadigan malakali pedagog kadrlar soni cheklangan, — deydi Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi Burhon Urunov. — Tanlov jarayoni ikki bosqichdan iborat. Nomzodlar joylardagi ishchi guruhlar tomonidan boshlang‘ich ta’lim, aniq va tabiiy fanlar, xorijiy tillar, ijtimoiy fanlar va amaliy fanlar yo‘nalishlari bo‘yicha tanlab olinadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4-sinf bitiruvchilari Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlarida jamlagan ballardan kelib chiqib hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilari (o‘quvchilari) tegishli o‘quv yili qabulida oliy ta’lim tashkilotlariga kirish natijalariga qarab saralanadi.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha tegishli tuman yoki shahar uchun belgilangan kvota o‘rniga ko‘pi bilan uchta nomzod taqdim etiladi. Hududlardagi maktab va o‘quvchilar soni ahamiyatga ega emas. Bu yil ustama olgan pedagog kelasi yil ham tanlovda ishtirok etishi mumkin. Ushbu jarayon nafaqat o‘qituvchilarni moddiy qo‘llab-quvvatlaydi, balki bilim va mahoratini ham sinovdan o‘tkazadi. O‘z ustida astoydil ishlashga ruhlantiradi.

Shunday qilib, vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan 1005 nafar malakali pedagog kadr ro‘yxati e’lon qilindi. Ularga 9 oy mobaynida, 2024-yilning may oyidan 2025-yilning yanvar oyiga qadar mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorida har oylik ustama to‘lab boriladi.

Hatto 5-6 nafargacha o‘qituvchisi ro‘yxatdan joy olgan maktablar borligi kishini quvontiradi. Demak, ular bir-birini qo‘llayapti, tajribasini, bilim va malakasini hamkasbiga o‘rgatyapti. Shu orqali ham maktabi sharafini himoya qilyapti, ham yuqori maosh olyapti. Bundan tashqari, sog‘lom raqobat muhiti shakllanmoqda. Masalan, Navoiy shahridagi 11-maktabning 6 o‘qituvchisi vazir jamg‘armasi ustamasini qo‘lga kiritdi. O‘tgan yili ham mazkur maktab jamoasining ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan.

— Tanlov uchun nomzodlar taqdim etish chegaralangan, shunday bo‘lmaganda maktabimizdagi har bir o‘qituvchi munosib ishtirok eta olardi, — deydi maktab direktori Gulnora Jumaniyozova. — Pedagogga moddiy va ma’naviy rag‘bat kerak. Biroq haqiqiy pedagog pulning ketidan quvmaydi, u fidoyi bo‘ladi, o‘z ustida ishlaydi, mehnatdan qochmaydi, o‘quvchilarni farzandidek yaxshi ko‘radi. Tajribamdan bilaman, fidoyi pedagoglar hech qachon qiynalib yashamaydi. Yaxshi maosh oladi, mehnati va malakasi tanlovlarda e’tirof etiladi, o‘quvchilarining yutug‘i ham unga mukofot keltiradi. Ana shu xislatda gap ko‘p. Salkam yigirma yildan buyon shu maktabni boshqaraman. 180 dan ortiq o‘qituvchi-pedagog bor. Ularning 102 nafari oliy toifaga ega, 37 nafari esa 1-toifali. 40 nafar o‘qituvchimiz “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni sohibi. 6 o‘qituvchi o‘z yo‘nalishi bo‘yicha doktoranturada tahsil olmoqda — bo‘lajak olimlar. Ular oliygohlarga ishga chaqirildi, takliflar hali-hanuz tinmaydi, biroq maktabga bog‘langan. O‘quvchilar bilan ishlash hayotining mazmuniga aylangan, maktabdan, bolalardan kechmaydi. Respublika va xalqaro fan olimpiadalarida o‘quvchilarimizning g‘olib bo‘layotganidan faxrlanamiz. G‘olib o‘quvchilarimizning ustozlari yirik summada bir martalik mukofot puli oladi. Bundan tashqari, milliy sertifikat va vazir jamg‘armasi ustamasi ularga yana qo‘shimcha mablag‘ keltiradi, hatto 15 million so‘mgacha maosh oladi.

O‘quvchilarim yurtga daxldorlik tuyg‘usi bilan ulg‘aysa, o‘sha eng katta yutug‘im

Bekzod NORSAIDOV,
Surxondaryo viloyati Bandixon tumanidagi 11-maktabning 1-toifali tarix fani o‘qituvchisi:

— Vazir jamg‘armasi ustamasi o‘qituvchilarga katta e’tibor namunasi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Maktabda ish boshlaganimga hali uch yil to‘lmadi. Joriy yil 14-may kuni 1-toifa malakasini oldim. Ayrim pedagoglar bor, bu toifaga erishish uchun yillar kerak bo‘ladi. Men imtihondan 92 ball bilan o‘tdim. Kasbimni yaxshi ko‘rganim, o‘quvchilar bilan ishlashdan zavqlanganim, mana shu zavq meni o‘z ustimda tinimsiz ishlashga undagani sabab bu yutuqqa erishdim, deb bemalol ayta olaman.

2021-yil Termiz davlat universitetining tarix fakultetini bitirib, maktabga ishga kelganman. Negadir o‘sha payt pedagog sifatida ishlab ketishimga ko‘zim yetmagan. Har bir er-yigit vatan himoyachisi bo‘lishni istaydi, men ham tarix fakultetini bitirgach, shu sohada ishlayman, forma kiyaman, deb orzu qilganman. Maktab o‘qituvchisining oylik maoshi kamligi yoki o‘quvchilar bilan ishlashda qiynalganim bois emas, mana shu orzu tufayli bir oz muddat dars bergach, inspektor-psixologlikka o‘tib ketdim. Biroq olti oydan so‘ng yana maktabga qaytdim. Mening o‘rnim maktabda, o‘quvchilar orasida ekanini angladim.

7-11-sinf o‘quvchilariga dars beraman. Bundan tashqari, bir sinfga rahbarman. Bilasiz, bugun ertalab chiqqan yangilik yoki kashfiyot tushdan so‘ng eskiradi. Chunki davr tezkor. Ularni fanga qiziqtirish uchun turli metodik usullar o‘rganaman, yarataman. Deylik, 7-8-sinf o‘quvchilari rolli-syujetli o‘yin tarzida tashkil etilgan darslarga qiziqadi, 9-sinfdan boshlab esa siyosiy jarayonlarga kirib boramiz, bunday mavzular yoshlarni qiziqtiradi. Tarix juda ajoyib fan, unda murakkab matematik amallar, kimyoviy reaksiyalar yo‘q, biologik tajribalar qilinmaydi. Shuni hisobga olib, yuqori sinflarda yangi mavzuga kirishdan avval qiziqarli faktlar va ma’lumotlar bilan darsni boshlayman. Eng zerikarli dars — darslikdan chiqmay tashkil etilgan o‘quv soati. O‘quvchilar mavzuni o‘zi o‘qib olaveradi. Biroq mavzuni qiziqarli tushuntirish metodikamizga, harakatimizga, ijodiy qobiliyatimizga bog‘liq.

2023/2024-o‘quv yilida 9-sinf o‘quvchisi Ahror Yo‘lliyev, 10-sinf o‘quvchisi Azizbek Ro‘ziyev, 11-sinf o‘quvchisi Fotima Eshqulova kabi shogirdlarim tarix fanidan o‘tkazilgan olimpiadaning tuman bosqichida 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, viloyatda tumanimiz sharafini himoya qildi. Har uchovi milliy sertifikatni qo‘lga kiritdi. Shu tariqa tarix fanidan OTMga kirish imtihonidan 100 foizlik natijani muddatidan avval qayd etdi. Bu maktab o‘qituvchilari, jumladan, mening mehnatimga berilgan baho.

“Ishlagan tishlaydi” degan gap bor. Buning isbotini ta’lim jarayonida ko‘ryapman. 2023-yilda milliy sertifikat olib, 20 foiz ustamaga ega bo‘lgan edim. Salkam 5,5 million so‘m maosh olaman. Yangi tartibga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 50 foiz ko‘tariladi. Bundan tashqari, vazir jamg‘armasi ustamasini ham qo‘lga kiritdim.

O‘tgan yili ustama olgan hamkasblarimga juda havasim kelgandi. Bu yil ro‘yxatda mening ham ismim bor. Umumiy hisobda 97,5 ball jamg‘ardim. Tumanimizdan 15 nomzod tavsiya etildi. Respublika saralash bosqichida 2 o‘qituvchi qoldik. Quvonarlisi, ikki g‘olib ham bizning maktabdan. Hamkasbim, oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Ruhiya Shaymonova ham ustama oladigan bo‘ldi.

Prezidentimiz 2025-yilga borib oliy toifali o‘qituvchilarning maoshi 1000 dollarga yetkazilishini ta’kidlagan edi. Hozir hisoblab ko‘rsam, o‘sha kunlarga qarab ketyapmiz. Men ham endi 1000 dollar maosh olaman, desam bo‘laveradi.

Dastlab ishga kelgan kezlarim oyligim 3 million so‘mga ham yetmas edi. Qisqa muddatda bu maosh salkam 4 barobar ko‘paydi. Bu uchun har kuni o‘z ustimda ishlashni kanda qilmadim. O‘zim uchun, millatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlar uchun harakatdan to‘xtamayman. Mukofoti esa o‘z-o‘zidan kelyapti. Hali yoshman, yo‘lning boshidaman. Maqsadlarim katta. Darslardan tashqari tarix fanidan repetitorlik ham qilaman. O‘quvchilarim hayotni anglasa, tarixni bilsa, xulosa chiqarishni o‘rgansa, mamlakat va millatga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashasa, o‘sha eng katta yutug‘im, baxtim bo‘ladi.

Endi 14 million so‘mdan ziyod oylik maosh olaman

Akmal MANSUROV,
Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi 57-IDUM oliy toifali matematika fani o‘qituvchisi:

— Bu ustama uchun sinovlarda ketma-ket ikki yil ishtirok etdim. Demak, menda ikkala jarayonni solishtirish, baholash imkoni bor, deya olaman. O‘tgan yili faqat mutaxassislik fanidan savollar taqdim etilgan bo‘lsa, bu yildan pedagogikadan ham test topshirdik. Haqiqiy pedagog kasbining miridan sirigacha bilishi, tushunishi kerak. Shu ma’noda, yangi tartib menga ma’qul bo‘ldi. Malaka sinovlarida ham bunga e’tibor qaratilgan. Testlar Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan mukammal tuzilgan, savollar yildan yilga takomillashib bormoqda. O‘qigan, bilgan odamga savollar oson. Qiyin dedimi, demak, u hali g‘o‘r, o‘qishi, o‘z ustida ishlashi, bilimini boyitishi kerak.

2011-yili Samarqand davlat universitetining bakalavr, 2013-yili magistratura bosqichlarini bitirgach, Tayloq qishloq xo‘jaligi kasb-hunar kollejida mehnat faoliyatimni boshlaganman. Maqtanishga yo‘ymang, biroq har bir o‘qituvchi shogirdlari yutuqlaridan faxrlanadi. Mening ham shu kungacha 550 ga yaqin o‘quvchim oliy ta’lim muassasalari talabasi bo‘ldi. Shogirdim Siddiqjon G‘afurov fan olimpiadasining respublika bosqichida 2-o‘rinni olib, davlat granti asosida universitetga o‘qishga kirdi. Yana bir shogirdim Zafar Davronov viloyatda 1-o‘rinni olib, respublikada viloyatimiz sharafini himoya qildi. Ayni paytda Zafar Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 1-kurs talabasi. Birinchi o‘rinda davlat granti asosida o‘qishga qabul qilingan. Quvonarlisi, bu shogirdim bilan “Zakovat” klubining haqiqiy a’zolarimiz. Bir jamoa sharafini himoya qilamiz.

Milliy sertifikatim bor. Bundan tashqari, ko‘plab tanlov va olimpiadalardagi muvaffaqiyatlarim tufayli ustamalar belgilangan. Hozir 9 million so‘mdan ortiq oylik maosh olaman. Vazir jamg‘armasi ustamasi bilan bu mablag‘ yana oshib, 14 million so‘mga boradi.

Men bu gal ham g‘olib bo‘la olaman, deb ishonardim va buni uddaladim.

Bugun mamlakatimizda bilim, aqliy mehnat bilan shug‘ullanayotgan fuqarolarimiz qo‘llab-quvvatlanayotganidan xursandman. Kelajakda o‘z ustimda ishlab, ta’lim sifatini oshirishga hissamni qo‘shib boraveraman.

Ayni paytda 7-8-sinf o‘quvchilariga dars beraman. Hademay bu sinf o‘quvchilari katta maydonda o‘zini ko‘rsatadi, fan olimpiadalarida ishtirok etamiz. Bunga hozirdan astoydil tayyorgarlik ko‘ryapmiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bashorat YUNUSOVA yozib oldi.

G‘alaba odimlari

Temur KAPADZE:

“PARIJ-2024” BU — BOSHLANISHI

Maqsadimiz — Olimpiada va jahon chempionatlarida doimiy ishtirok etish

Birlik, hamjihatlik, hamfikrlik. Har qanday taraqqiyotning tamal toshi, birlamchi sharti shular, nazarimda. Muvaffaqiyatga erishgan qaysi oila, jamoa, hatto jamiyat yoki davlatlarga qaramang, bu omillar ularning umumiy yuksalish jihatlari bo‘lib chiqaveradi.

Ha, ham fikrda, ham amalda birlik bor joyda bo‘linish bo‘lmaydi. Bir butunlik, yaxlitlik esa yengilmas, buyuk ishlarga qodir kuch yaratadi. Binobarin, “Biz bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — vatanmiz”.

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: oilaviy jihatlar-ku, ko‘pchilikka ma’lum, lekin jamiyat yoki davlat miqyosidagi birlik, hamjihatlik va hamfikrlik qanday ta’minlanadi? Bunga, avvalo, barcha uchun teng sharoit yaratish, adolatli boshqaruv orqali erishiladi. Shu bois, mamlakatimizda aholiga munosib ish va turmush sharoiti yaratish, korrupsiya, tanish-bilishchilik kabi jamiyat taraqqiyotiga tushov bo‘layotgan illatlarni yo‘qotish, qonunlarning barcha uchun birdek ishlashini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda. Pirovardida bugun mehnatkash, mard va olijanob, mehr-oqibatli yurtdoshlarimiz vaqtni imkoniyatga, imkoniyatni yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olayotgan xalq bo‘lib maydonga chiqmoqda. Buni birgina millionlar o‘yini — o‘zbek futbolining g‘alabali odimlari misolida ko‘rish mumkin.

Yaqin kunlarda qulog‘imizga eng ko‘p chalingan va ko‘plab yurtdoshlarimiz bilan bir qatorda dunyo e’tirofiga sabab bo‘lgan voqealardan biri O‘zbekiston olimpiya terma jamoasining Parijda o‘tadigan Olimpiadaga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani bo‘ldi. Boisi, bu yo‘llanma yillar davomida intiqlik bilan kutilgan orzumizni ro‘yobga chiqarib, yangi maqsadlarga yo‘l ochdi. Boshlanishiga tobora oz muddat qolayotgan Olimpiada o‘yinlarining eshik qoqib turishi esa ko‘plab futbol ixlosmandlari ko‘ngliga hayajon solayotgani bor gap.

Shu bois, jamoamizning mazkur nufuzli turnirga tayyorgarlik jarayoni, g‘alaba imkoniyatlari haqida O‘zbekiston olimpiya terma jamoasi bosh murabbiyi Temur Kapadzening fikrlari bilan qiziqdik.

— Temur Tohirovich, avvalo, jamoaning shu yil Parijda bo‘lib o‘tadigan Olimpiada o‘yinlariga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani bilan tabriklaymiz. Afsuski, U-23 Osiyo kubogi finalida Yaponiyaga mag‘lub bo‘ldik. Qisqa muddatda futbolchilarimiz ham g‘oliblik sururi, ham mag‘lubiyat alamini his qildi. Ayni paytda bosh murabbiy sifatida sizning, qolaversa, yoshlarning ruhiyati, katta musobaqadagi o‘yinlarda g‘alabaga ishonch qanday?

— Barcha Osiyo davlatlari futbolchilarining yagona maqsadi bor edi. Bu ham bo‘lsa, Olimpiada yo‘llanmasini qo‘lga kiritish. Maqsadlar to‘qnashgan joyda esa faqat kuchlilar g‘alaba qozonadi, ya’ni orzusiga yetishadi. Maqsadlar o‘z yo‘liga, ammo Vatan oldidagi burchimizni zimmamizga olib, biz, albatta, g‘alaba qozonib qaytamiz, degan o‘y va ishonch bilan Qatarga bordik.

Avvalo, qo‘lga kiritilgan yo‘llanma nafaqat futbolchilar, balki millionlab futbol ixlosmandlari, yurtimizning kichik bir g‘alabasidir. To‘g‘ri, xalqimiz necha yillar davomida bu yo‘llanmani kutdi va unga birinchi marta erishdik. Shu nuqtayi nazardan qarasak, Olimpiada yo‘llanmasi biz uchun katta va tarixiy g‘alaba. Unda nega kichik g‘alaba, deyapmiz? Chunki maydonga yo‘llanmani qo‘lga kiritish bilan bir qatorda Olimpiada o‘yinlarida munosib o‘rin egallash, vatanimiz sha’ni, xalqimizning futbol bo‘yicha orzularini ro‘yobga chiqarish uchun bel bog‘lab maydonga tushganmiz.

Jamoamizning Qatar maydonlaridagi ishonchli g‘alabasiga nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki ortimizda turgan millionlab yurtdoshlarimizning duosi bilan erishdik, deb bemalol ayta olaman.

Bugun boshlangan g‘alabalar ortida ulkan ishonch va munosib e’tibor yotibdi. Bu bizga yaratilgan sharoit va katta ishonch mevasi. Olimpiadaga to‘rt yildan buyon mas’uliyat, tinimsiz mehnat va o‘ziga yarasha yuk bilan tayyorgarlik ko‘rdik. Shukr, yuzimiz yorug‘ bo‘ldi.

Jamoa tarkibi yosh bo‘lishiga qaramay, mana shu qisqa muddatda futbol ixlosmandlari qalbida muhrlanib qoldi. Indoneziya bilan o‘yin yakunlanganidan so‘ng, ya’ni Olimpiada yo‘llanmasini qo‘lga kiritganimizdan keyin yelkamizdan katta yuk tushdi. Biz yaxshi ishladik, qancha uyqusiz kechalar bo‘ldi. Faqat shu maqsad bilan uxlab, shu maqsad bilan turdik. Boy berilgan asab, o‘tgan bedor tunlar, mehnat va mas’uliyat mevasini totish baribir boshqacha.

Indoneziya ustidan g‘alaba qozonilgandan so‘ng ko‘plab qutlovlar keldi. Xususan, Prezidentimiz shaxsan tabrik yo‘llagani bizni o‘zgacha g‘ururlantirdi. Finaldagi mag‘lubiyatga kelsak, biz munosib o‘yin ko‘rsatdik. G‘alabaga yaqin edik. Lekin bu o‘z nomi bilan futbol — unda hamma narsa yuz berishi mumkin. Bundan tashqari, asosiy o‘yinchilarimizdan uch nafarining jamoalariga ketishiga to‘g‘ri keldi. Bu o‘yinchilar g‘alabaga erishish uchun muhim ahamiyatga ega edi. E’tibor bergan bo‘lsangiz, Yaponiya jamoasiga qarshi yaxshiroq o‘ynadik. Omad ham qaysidir ma’noda yuz o‘girdi. Yana bir jihatni tan olishimiz kerak: Yaponiya jamoasi ham yomon o‘yin ko‘rsatmadi.

Ruhiy bosim masalasida jamoamizda aytarli muammo yo‘q. Chunki avvalboshdan yigitlarning ruhiyatini ko‘tarish bo‘yicha alohida shug‘ullanyapmiz. Yuqorida aytganimdek, Olimpiadada g‘alaba qozonish uchun harakat qilamiz.

— Jamoamizning Qatardan qaytib kelganiga ko‘p bo‘lmadi. Olimpiada o‘yinlari boshlanishiga esa ikki oydan ko‘proq vaqt qolyapti. Aytmoqchimanki, nufuzli turnirga qay darajada tayyorgarlik ko‘rilmoqda?

— Osiyo chempionati tugamasidan, ya’ni Olimpiada yo‘llanmasini qo‘lga kiritishimiz bilan tayyorgarlikni boshlaganmiz. Hozir FIFA

kunlari munosabati bilan o‘tkaziladigan o‘rtoqlik uchrashuvlarimiz bor. Bu ham tayyorgarlikda, albatta, muhim ahamiyatga ega.

Hali vaqt bor. Mana shu muddatda jamoamiz jismoniy holatini tiklab olishi va bo‘lg‘usi o‘yinlar oldidan o‘z kuchini namoyish qilishi kerak.

— Qatarda o‘tgan U-23 Osiyo kubogida jamoamiz tarkib jihatdan eng qimmat ekani e’tirof etildi. Parij olimpiadasida ushbu tarkibning to‘liq ishtiroki yoki uni yanada kuchaytirish bo‘yicha yangiliklar bo‘lishi mumkinmi?

— Shu o‘rinda bir jihatni e’tirof etish kerak: bugungi tarkibimiz kuchli. Nafaqat Osiyo, balki Yevropaning yetakchi klublarida o‘ynayotgan futbolchilarimiz bor. Bu jihat, birinchi navbatda, o‘zbek futboli, O‘zbekiston nomini dunyoga olib chiqishga zamin yaratadi, albatta. Shu bilan bir qatorda, xalqimizning ma’lum ma’nodagi g‘alabasi hamdir.

Tasavvur qiling, bugun legioner bo‘lib turli davlatlarda to‘p surayotganlarning aksariyati oddiy oiladan chiqqan o‘g‘lonlar. Har biri o‘z kuchi va maqsadi bilan olg‘a odimlayapti. Davlat yaratayotgan sharoit esa ularning maqsadiga yetishi uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Ikkinchi masala: futbol rivojlangan davlatlarda to‘p surish jamoamiz o‘yinchilariga mashhurlik keltirish bilan birga jamoaviy o‘yin uslubiga ham muhim ta’sir o‘tkazadi. Ular tajribasi orqali jamoaga o‘zgacha ruh bag‘ishlamoqda. Aynan jamoa Olimpiadaga yo‘llanma olishining muhim sabablaridan biri ham ularning kuchli klublarda to‘p surishi bilan bog‘liq.

Tarkib masalasiga kelsak, aynan kim ketishi yoki qolishi hali aniq emas. Mashg‘ulotlarda hamda murabbiylar, federatsiya bilan kelishilgan holatda kim borishi aniq bo‘ladi.

Yana bir masala: Olimpiada yo‘llanmasi uchun 23 futbolchimiz qatnashgan bo‘lsa, Parijga 18 futbolchi ketishi kutilmoqda. Ya’ni futbolchilar soni qisqarishi mumkin. Shu bilan birga, har uch kunda o‘yin o‘tkaziladi. Agar 2-3 darvozabon olib borsak, 15-16 o‘yinchi bilan olimpiadani o‘tkazishimizga to‘g‘ri keladi. Endi legionerlarimiz va ularning klublari bilan ham gaplashib ko‘riladi. Eng muhimi, universal o‘yinchilarni olib ketish ko‘zda tutilgan.

— Parij olimpiadasi doirasidagi birinchi o‘yinimiz 24-iyul kuni guruh favoriti — Ispaniyaga qarshi kechadi. Ayting-chi, birinchi uchrashuvning kuchli raqibga qarshi o‘tishi futbolchilarimizda ortiqcha bosim paydo qilmaydimi? Umuman, guruhdagi raqiblarimiz va O‘zbekiston olimpiya terma jamoasining keyingi bosqichga chiqish imkoniyatlarini qanday baholaysiz?

— Har bir musobaqada birinchi uchrashuv muhim bo‘ladi. Shu bilan birga, og‘ir kechadi. Ispaniya kabi kuchli jamoaga qarshi o‘ynashning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari bor, albatta.

Birinchi navbatda, biz bu o‘yinga puxta tayyorgarlik ko‘ramiz. Har bir raqibni hurmat qilgan holda biror-bir jamoadan cho‘chiydigan joyimiz yo‘q. Chunki bu turnirda kuchsiz jamoa bo‘lmaydi. Hammasi o‘z qit’asidagi g‘alabasi orqali bu yergacha yetib keladi. Shu muvaffaqiyatning davomiyligini istashadi. Biz Ispaniya va boshqa jamoalarni kuchli sanaymiz, ammo jamoamiz haqida ham ular xuddi shunday o‘ylashi hech gap emas.

Sababi, biz nafaqat Osiyo, balki Yevropada ham futbolimizni namoyish qila oldik. Bizdan faqat harakat kutiladi. Qolganini o‘yin davomida ko‘ramiz. G‘alaba uchun maydonga tushamiz va shuning uchun kurashamiz.

— Muxlislar futbolchilarning intervyularini ham e’tirof etmoqda. Bunga alohida tayyorgarlik ko‘riladimi yoki ularning ruhiy tayyorgarligi bilan bog‘liqmi?

— Xalq qahramonlarini har doim mukammal ko‘rishni xohlaydi. Bugun jahonga bo‘ylashayotgan bu yoshlar chin ma’nodagi qahramonlardir. Ular bu yerga yetib kelgunicha o‘z ustida nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham ko‘p ishlagan. Milliy mentalitetimiz kecha yoki bugun shakllanib qolgani yo‘q. Asriy evrilishlar davomida saqlanib qolgan boy qadriyatlarimiz va ma’naviy qiyofamiz shu futbolchilarda namoyon bo‘lmoqda.

To‘g‘ri aytasiz, o‘yinlarni e’tibor berib kuzatgan bo‘lsangiz, jamoa turnir davomida eng tartibli o‘yin ko‘rsatganini butun dunyo e’tirof etyapti. Bunga o‘zgacha tayyorgarlik ko‘rish shart emas. Ularning bu qiyofasi yetishib chiqqan muhiti, ota-onalarining tarbiyasi mevasidir. Shu bilan birga, ularga o‘zini tutish bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalar beriladi.

— Ancha yildan buyon O‘zbekiston futboli ichidasiz — avval kuchli yarim himoyachi, hozir esa yetuk mutaxassis sifatida. Shuning uchun ham yaxshi bilasiz, aksariyat yurtdoshlarimiz futbolga qiziqadi. Ayniqsa, O‘zbekistondagi futbol klublari yoki terma jamoaning nufuzli turnirlardagi g‘alabasiga uzoq yillardan buyon umid bog‘lab keladi. Keyingi yillarda millionlab yurtdoshlarimizning ana shu orzusi birinketin ushala boshladi, nazarimizda. O‘zbek futboli rivojining yangi bosqichga chiqishiga asosiy sabab va omillar nimada deb o‘ylaysiz?

— Avvalo, mamlakatimizdagi yangilanishlar barcha soha qatori futbolni ham qamrab oldi. Prezidentimizning 2018-yil 17-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan sohada tub o‘zgarishlar boshlandi.

Birinchi navbatda, hududlar miqyosida futbol akademiyalari tashkil etilishi yoshlarning bu sohaga kirib kelishida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tadi. Boshqa tarafdan esa saralash jarayoni to‘rt devor ichida emas, balki yoshlarning iqtidoriga qarab o‘tkazila boshlagani bugun o‘z samarasini beryapti.

Birgina Olimpiada yo‘llanmasi uchun jamoa shakllantirayotganimizda ba’zilar 23 yoshgacha bo‘lgan tarkibning eng kuchlilarini yig‘amiz, deyishdi. Men esa tarkibni shu yosh doirasiga kirgan, lekin o‘rindiqlarda yoki e’tibordan chetda qolib ketgan futbolchilar orasidan saralab olishimni aytdim. Sababi, avvalo, asosiy tarkibda o‘ynayotgan o‘yinchilarning sharoiti ham yaxshi edi. Ya’ni ular o‘sish uchun hamma imkoniyatga ega. Ammo tarkibga kirmay qolganlarning holati — boshqa masala.

Asosiy tarkibga kirolmagan futbolchilarni jamoaga jalb qildik. Bu yoshlar orasida iqtidori va qobiliyati yaxshi bo‘lgani bilan nafaqat asosiy tarkibga kirolmay qolgan, balki jamoasi yo‘qlari ham bor edi. Ularning barchasini sinovdan o‘tkazib, umumiy jamoa shakllantirdik. Mashg‘ulotlar o‘tash uchun bizga sharoit yaratildi. “Olimpik” klubi tashkil qilindi. Bunda, eng birinchi navbatda, Olimpiadagacha bo‘lgan jarayonda yoshlarning qobiliyatini yanada mustahkamlash ko‘zda tutilgan edi. Shu tarkib bilan proligadan superligaga chiqdik.

Dastlabki mavsumdan superligaga yo‘llanma oldik. Bir so‘z bilan aytganda, “Olimpik” loyihasi juda ko‘p futbolchilarni kashf etish imkonini berdi. Yurtimizda o‘tgan Osiyo chempionati ham Olimpiadaga yo‘llanma olishimiz uchun yaxshigina dars bo‘ldi. Finalgacha bordik.

Xitoydagi Osiyo o‘yinlarida bronza medal bilan cheklangan bo‘lsak-da, unda ham katta tajriba to‘pladik. Bu yutuqlar ortida bizga yaratib berilgan imkoniyatlar yotibdi, albatta.

Eng muhimi, tizim o‘zgardi. Bugungi imkoniyatlar kelajak uchun muhim zamin hozirlamoqda. Dunyo maydonlarida o‘ynayotgan yoshlar nima uchun jahon chempionatiga chiqolmaydi?! Chiqadi, albatta. Bu yoshlarni nima ulg‘aytirdi? Birinchi navbatda, maqsadi, niyati. Ularda hech kim, hech qachon so‘ndirolmaydigan maqsad bor — ishonchga yo‘g‘rilgan g‘alaba umidi.

Bugun bu yoshlarni davlatimiz qo‘llab turibdi. Osiyo chempionatidan so‘ng shaxsan davlatimiz rahbari tabriklagani yigitlarning kuchiga kuch qo‘shgani shubhasiz.

— Yuqoridagi savolning mantiqiy davomi sifatida so‘ramoqchiman: yurtimizdagi futbol muxlislarining eng katta orzularidan biri terma jamoamizning jahon chempionatida ishtiroki bilan bog‘liq. Mutaxassis sifatida siz bu boradagi imkoniyatimizni qanday baholaysiz? Umuman, futbolni yanada rivojlantirish, yutuqlarimiz davomiyligini ta’minlash nimalarga bog‘liq?

— Birinchi navbatda, har bir murabbiyning vijdoni toza bo‘lishi kerak. Ba’zan o‘zimga ham yaqinlarim, tanishlarim kelib, birorta yigitni tavsiya qilib, shuni jamoangga ol, deydi. Men “Mana maydon, o‘zini ko‘rsatsa, albatta, uni tarkibga olamiz”, deyman.

Halollikda gap ko‘p. Jahonda futbol rivojlanishining asosiy sababi o‘yinchilarning jismoniy holati bilan birga dunyoqarashi allaqachon o‘zgarganida. Ya’ni ular pul yoki tanish-bilishchilik bilan maqsadga erishib bo‘lmasligini yaxshi anglaydi. Ular nazdida yagona yo‘l bor: mehnat, mehnat va yana mehnat. Marra qancha uzoq olinsa, g‘alaba shuncha ko‘p bo‘ladi. Umuman teskarisi ham bo‘lishi mumkin.

Jamoalar o‘rtasida munosib raqobatni shakllantirish kerak. Bir vaqtlar jamoalar o‘zaro kelishgan holatda hisobni belgilagan vaqtlar ham bo‘lgan. Buning oqibatida futbolchi mashg‘ulotda ham, boshqa jarayonlarda ham o‘zini qiynamaydi. Shuning uchun ko‘p mutaxassislarimiz o‘sishdan to‘xtadi. Kuchli jamoalar g‘alaba uchun o‘ynadi, ammo o‘rta va quyi jamoalar rivojlanmay qoldi.

Bugungi rahbariyatimizning korrupsiya va kelishilgan o‘yinlarga qat’iy chek qo‘ygani ham muayyan ma’noda o‘zbek futbolining rivojlanishiga sabab bo‘ldi. To‘g‘rilik va halollik bor joyda natija ham bo‘ladi.

Ikki-uch yildan buyon Superligada ham o‘yinlar shiddatli o‘tyapti. Kurash, raqobat bor joyda, albatta, o‘sish bo‘ladi. Klublar o‘rtasida raqobat bo‘lishi mumkin, ammo milliy terma jamoada raqobat yo‘q. Muhimi, Vatan sharafini himoya qilish kerak. Bu jamoalarda o‘ynayotganlar aka-ukalardek inoq. Hech zamonda aka-uka orasida raqobat bo‘ladimi? Yo‘q, albatta. Aka-uka o‘rtasida faqat birlik, hamjihatlik, hamfikrlik, xursandlik bo‘ladi.

Jahon chempionatiga chiqish uchun futbolchi sifatida harakat qilganman. Har safar nimadir yetishmagan. Bu safar shu kamchiliklarni yo‘qqa chiqargan holatda mundialga boramiz. Bugun yetishib chiqayotgan yosh futbolchilarni to‘g‘ri yo‘naltira olsak, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalansak, albatta, jahon chempionatiga chiqamiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Sardor TOLLIBOYEV suhbatlashdi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1666.
44034 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 21:15 Topshirildi — 22:30